

Avval qulay sharoit, keyin talab bo'lsin!

Bugun maktablarda o'qitish metodikasini o'zgartirish haqida ko'p gapiramiz, ammo bu haqda bosh qotirishdan oldin maktab-larning moddiy-teknik bazasini zamonaviy tarzda yangilash zarur. Shundagina takliflarimiz taklifligicha qolib ketavermasdi. Zero, bu borada hali muammolar bisyor.

2-bet

"Boshlang'ichilar" va "Yuqorilar" o'rtasida tortishuv

Aksariyat hollarda maktabning boshlang'ich hamda yuqori sinf o'qituvchilar o'rtasida qizg'in bahs-munozaralar bo'lib turadi. Mavzu bitta — yuqori sinf o'quvchilarining asosiy fanlardan yaxshi o'zlashtira olmasligi va bunga kim aybdorligi.

6-bet

"Biznikilar juft oti-la, arobasi-la, to'yilila ...faxr etar"

Mustamlaka davrida millat sha'ni, uning ertangi kuni, xalqning yutug'i va qusurlari, yosh avlodning savyiasi haqida gapiradiganlar ko'p bo'lmasa-da bor edi. Buni XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati misolda ham ko'rish mumkin.

11-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqsa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 14-aprel, chorshanba № 15 (9340)

Xalq ziyorilari gazetası

Attestatsiya diplomdan kuchlimi?

2011-yildan keyin attestatsiya jarayoniga qiziqmay qo'yanman. Sababi, o'sha yili attestatsiyaning 1-bosqichida testdan o'tib, 2-bosqich — suhbat uchun Farg'onaga borganmiz. U yerda 7 kishidan iborat komissiya 50–60 betlik fayl(ish faoliyatim aks ettirilgan)ni ko'rib chiqdi. Rosa maqtashdi, keyin esa arzimagan sababga ko'ra oliy toifadan mutaxassis maqomiga tushirishdi. Shu bo'ldi-yu, attestatsiyaga qiziqmay qo'ydim.

2020-yil 10-yanvar kuni Farg'ona shahridagi 27-maktabga attestatsiyaga bordim. 40 ta mashq tushdi. Bajarish uchun 1 soat-u 30 daqiqa berildi. 30 ta mashq ishladim. Lekin yetarli ball to'play olmadim. Eng qizig'i, nomutaxassis maqomi berildi mena. Bu degani — attestatsiya diplomdan kuchli deganimi? Diplomda esa quy-

dagi so'zlar yozilgan: "Umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi". 36 yildan buyon maktabda ishlayapman. Jarayonning hammasini yaxshi bilaman. Yoshim 57 da, xotira pand bermoqda. Lekin dars jarayoniga alohida tayyorgarlik bilan kiraman.

3-bet



Isroil Tillaboyev:
"PISAda past ball
olsak kerak"



7-bet

O'qiluvchi
nimani
o'ylaydi?



Maktablarda "onlayn" niqobi ostida uzlusiz dars qoldirib kelayotgan o'quvchilar bor. Chunki shu maktab rahbariyatiga mansab kerak. Agar o'quvchilarining falon foizi OTMga kira olmasa, rahbarlar ishdan ketishiga to'g'ri keladi. Davommati yaxshi o'quvchi bi kum dars qoldirsma, tamom. Kaltak sinf rahbarlari boshida sinadi. Birini qo'y, qayerga bo'lsa borib o'qisin, tayyorlansin, deb yo'lini oshib, boshqasini mahkam siquvga olishimiz adolatdanmi? Ota-onha rahbariyat bilan kelishib olgan, o'quvchilar sinf rahbariga haqli savol berishi shadi. Nega? O'qituvchi obro'si haqida og'iz to'ldirib gapirishdan ko'ra, amalda bajarish, bir-birim qo'llab-quvvatlash, ota-onalar va o'quvchilar oldida ikkiyuzlamachilik holatlariga barham berish payti kelmadimi?

Hayotjon IBROHIMOV

Yaqinda bir odam maktabga kelib, o'quvchilarimidan birini so'radi. Kimligini, bolaga qanday aloqasi borligini surishtirsak, otasiman deydi. Eng ayanchlisi, ota bolasining qaysi sinfda o'qishini bilmaydi. Rostdan otasimisiz, desak, jahli ham chiqdi. O'ylab turib 6-sinfda o'qiydi, dedi. 4 ta 6-sinf bor, hammasini izladik, unday bola topilmadi, keyin bilsak, 7-sinfda o'qirkana. Ana tomosha...

Matluba ILESHEVNA

Test savollari "Ma'rifat"da chop etiladi

Bu yil ham Davlat test markazi va "Ma'rifat" gazetasini hamkorligi davom etishini malum qilamiz. Abituriyentlarning test sinovlariga puxta va samarali tayyorgarlik ko'maklashish maqsadida gazetamizning navbatdagi sonlarida imtihon olinadigan fanlar bo'yicha

Davlat test markazining aprobatsiyadan
otgan test savollarini e'lon qila boshlaymiz.

Gazetamizga obuna bo'lishni istasangiz, hudoingizdag "Matbuot tarqatuvchi" va pochta bo'limlariga murojaat qilib, obunani rasmiylashtiring. Shuningdek, test savollari "Ma'rifat" mobil ilovasida ham berib boriladi. "Ma'rifat"ga obuna bo'ling va test savollari bilan tanishishga tayyorgarlikni hozirdan boshlang!

Marifat

DTM
DAVLAT TEST MARKAZI

Obuna
indeksi - 150.

@marifatziyo

www.marifat.uz

f /marifat.uz

Eh, senimi "Attestatsiya"! Sen sabab farzandlarimga shirin-shirin taomlar ham tayyorlab bera olmadim. Boshqa ishlarim ham chala qoldi. Faqat g'ala ba qilish, sinovdan mardonavor o'tish haqida o'yildim. Mana hozir ovqatlarimga ham maza zalvorli yukdan xalos bo'lgandayman. Niyatimga yetdim. Afsuski, hamkaslarim ko'pi mutaxassislikka tushib qoldi. Yoshi kattaroq ustozning qon bosimi oshib ketdi.

O'QITUVCHI

XTB metodistlari fan liderlari bo'lishi kerak

o'qituvchilar malakasini oshirishda Janubiy Koreya tajribasi

Pedagogika oliv o'quv yurtlari talabalarni qabul qilishda superkontraktidan voz kechishi shart.

Koreyada o'qituvchining stagi oshgani sayin har yili maoshi ham ko'payib boradi (o'rtacha har yili 200–300 dollargacha qo'shiladi), ish barqaror, oylik belgilangan vaqtida to'lanadi, shuning uchun pedagog bo'lib ishlashni xohlovchilar juda ko'p. Maktabga endi kelgan yosh mutaxassisiga 3000 dollar oylik maosh to'lanadi.

Boshlang'ich maktab o'qituvchilar pedagogika universitetlarida, o'rta va yuqori maktablar o'qituvchilar pedagogik fakultetlari bor universitetlarda tayyorlanadi. Asosiy boshqaruvi organi Ta'lim vazirligi hisoblanadi.

Koreyada boshlang'ich maktab o'qituvchilarining darajasi universitetlardi o'qituvchilar darajasiga tenglashtirilgan. Keyingi paytlarda boshlang'ich maktablar pedagoglarining soni ham kamayib bormoqda. O'rta va yuqori maktablar o'qituvchilarining soni boshlang'ich maktablar o'qituvchilariga nisbatan 10 barobar ko'p.

Boshlang'ich maktab o'qituvchilarini tayyorlovchi universitetlar mamlakat bo'ylab 13 ta bo'lib, ulardan 10 tasi aynan boshlang'ich maktab pedagoglarini tayyorlash bilan shug'ullanadi. O'rta va yuqori maktab o'qituvchilarini

50 foiz OTMlarda tayyorlanadi.

Malaka oshirish markazlashgan holda Ta'lim vazirligining o'zida hamda hududlardagi standartlashtirish boshqarmalarida amalga oshiriladi.

O'qituvchilikka o'qish davrida 4 yil davomida 140 kredit yig'ish kerak (shu jumladan, 72 kredit mutaxassislik bo'yicha). Mutaxassislik krediti majburiy hisoblanadi, qolgan 68 kreditni talaba o'zi tanlaydi. 72 kreditning 50 krediti majburiy mutaxassislik fanlari bo'lsa, qolgan 22 kredit umumta'lim majburiy fanlaridir.

Boshlang'ich maktabda jami 69 ta fan bo'lib, ana shu fanlar o'qituvchilar majburiy 50 kreditning 8 kreditini pedagogik mahorat bo'yicha to'plashi zarur, 68 kredit barcha pedagoglar bilishi kerak bo'lgan fanlar hisoblanadi. Masalan, baholashni o'rgatadigan, ma'ruza tayyorlashni o'rga-

tadigan fanlar va h.k. (4 soati pedagogik mahorat, 60 soat volontorlik).

Barcha kreditlarni to'plagandan so'ng o'qish yakunida 2-darajali diplom beriladi. Bitiruvchi diplomni olgandan keyin biror mabkabda to'liq shtatda ishlashi uchun maxsus imtihon o'tishi kerak. Imtihon hududiy byurolarda tashkil etiladi. So'ngi paytlar hududlardagi imtihonlarning saviyasi pasayib ketdi, natijada markazlashtirildi.

1-bosqichda imtihon biletidagi savol-larga javob beriladi.

2-bosqichda byuro a'zolari (fan liderlari) oldida ochiq dars o'tiladi.

2-darajali diplom bilan 3 yillik stajdan so'ng 90 soatlik malaka oshirish kursiga borib, undan muvaffaqiyatlari o'tsa, 1-darajali diplom oladi. Shundan so'ng asosiy shtatga ishga kirishi mumkin bo'ladi.

O'qituvchilar uchun 4 ta toifa mavjud: 2-, 1-, oliy va yuqori toifalar. Har bir toifani olish uchun maxsus malaka oshirish kursidan o'tish kerak. Yuqori yoki oliy toifani olish uchun har yili 60 soatlik maxsus malaka oshirishdan o'tish shart. Malaka oshirish onlayn tarzda yoki joyiga borib o'tiladi.

Har yili har xil dastur bo'yicha o'qitiladi. Malaka oshirish hududlarda standartlashtirish byurolari tomonidan amalga oshirilgan, bugungi kunda Ta'lim vazirligi zimmasida.

Koreyada NISE elektron tizimi mavjud, uning ichidan o'qituvchi o'ziga kerak bo'lgan barcha ma'lumotlarni topishi mumkin.

Hududiy byurolari tomonidan chekka joylardagi o'qituvchilar yetishmasligi muammosi quyidagi hal etiladi: boshlang'ichda muammo yo'q, o'qituvchi yestartilar. Agar chekka hududlarda biror fandan o'qituvchi yo'q bo'lsa, boshqa bir maktabdan ikkinchisiga yuborish orqali hal qilinadi, yoki 50 majburiy mutaxassislik fanlari krediti o'qiganlarga shu fandan ham dars berishga ruxsats etiladi.

Janubiy Koreya tajribasi O'zbekiston-da ham maktablar qorilgina qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Tuman (shahar) XTBlardagi fan metodistlari fan liderlari bo'lishi kerak.

Akbar ALIMOV,
Ta'lim sifatini nazarat qilish
davlat inspeksiyasi bo'lim boshlig'i,
Xalq ta'limi fidoyisi

O'qituvchi minbari

Bugun maktablarda o'qitish metodikasini o'zgar-tirish haqida ko'p gapiramiz, ammo bu haqda bosh qotirishdan oldin maktablarning moddiy-teknik bazasini zamonaviy tarzda yangilash zarur. Shundagina takliflarimiz taklifligicha qolib ketavermasdi. Zero, bu borada hali muammolar bisyor.

Avval qulay sharoit, keyin talab bo'lsin!

Ta'lim sifatini yaxshilashga doir bir nechta takliflarni ilgari surmoq-chiman:

1. Maktablar necha o'ringa mo'ljallanib qurilgan bo'lsa, shuncha o'quvchi o'qishi kerak. 1,5 yoki 2 barobar emas.

2. Sinforda o'quvchi soni 25 na-fardan oshmasligi lozim.

3. Pedagogika oliv o'quv yurtlari talabalarni qabul qilishda superkontraktidan voz kechishi shart.

4. Pedagogika oliv o'quv yurtlari sessiya imtihonlarini korrupsiyadan xoli qilish, uchinchi sessiyada ham imtihon o'tolmasa kursida qoldirish kerak.

Takliflarimni o'qiganlarda "nega?" degan savol tug'ilishi tabiiy.

Maktablar bir smenali bo'lsa, o'qituvchida to'garak va qo'shimcha masgh'ulot o'tish imkoniyati paydo bo'ladi. Hozir-chi? Juda ko'p maktablarda o'qish ikki smenada. Bo'sh xona yo'q. Bunday sharoitda to'garak hujjatlari talab etilishi qanchalik to'g'ri? Natijada o'qituvchi o'tmag'an, to'g'rirog'i, o'tish imkoniyati bo'lmagan to'garagini o'tildi deb rasmiylashtiradi. Bunday ko'zbo'yamachilik bilan nimaga erishamiz?

O'qitish metodikasi eng zo'r o'qituvchi ham 30–35 o'quvchiga

birdeq vaqt ajratolmaydi, ular bilan 45 minut davomida ishslash o'z samarasini bermagan, bundan keyin ham ber-maydi.

Superkontrakt masalasiga kelsak, shundoq ham maktablarda a'lo ba-hoga o'qiydig'anlar moliya, tibbiyat, yuridik, diplomatiya, iqtisodiyot, farmatsevtika kabi yo'naliishlarga hujjat topshirishadi. Sababi o'zingizga ma'lum. 189 baldan 40–100 ball to'plab pedagogika oliv o'quv yurtlari superkontraktida o'qigan bo'la-jak o'qituvchilar kelajakda 20–50 ball to'playdigan o'quvchilarini yet-kazib berishadimi?! Shumi bizning maqsadimiz? Agar rostdan maktab ta'limi sifatini ko'tarmoqchi bo'lsak pedagogika yo'naliishidagi institutlarda superkontraktidan voz kechish shart.

Pedagogika oliv o'quv yurtlari rektori va professor o'qituvchilarini bitiruvchilarining bilimi va pedagogik-psixologik tayyorgarligi uchun javobgarlikni o'z zimmalariga olishi zarur. Shundagina talaba korupsiyadan xoli muhitida ta'lim olib, yetish kadr bo'lib yetishadi.

Norchuchuk NORMURODOVA,
Shahrisabz shahridagi
16-maktabning matematika fani
o'qituvchisi

Maktablar lug'at bilan ishslashga tayyor emas

Bugun darsliklardi xatoliklar haqida ko'plab fikr bildirilmoqda. Ayniqsa, ona tili darsliklarda tuzatilishi lozim bo'lgan kamchiliklar yetarlicha. Afsuski, bildirilayotgan fikrlar inobatga olinmayotgandek, tanqidlar mutasaddi xodimlarning nazariga tushmayotgandek.

8-9-sinf darsliklari garchand yangi, takomillashtirilgan bo'lsa-da, muhokamali mavzular bisyor. Misol uchun, 9-sinf "Oma tili" darsligida qo'shma gaplar, ularning turllari, ichki bo'linishlari kabi mavzular o'rin olgan. Bilamizki, bu mavzular murakkabligi bilan ajralib turadi. Ularni o'quvchilarga tu-shuntirish oson kechmaydi. Albatta, o'quvchilarning o'zlashtirishi ham murakkab jarayon. Qo'shma gap hamda ularning turlari eng sa-marali usullardan foydalangan holda o'tilsa ham, bir sinfda atigi 5 yo 6 o'quvchi mazkur mavzularni o'zlashtiradi, qolgan o'quvchilar tushuncha hosil qilmasdan ko'chirib qo'yadoli.

Bir kuni 9-sinfga darsga kirib, "Ergashgan qo'shma gaplar" mavzusini obdon tushuntiridim. So'ngira o'quvchilarga topshiriq berib, vazifani bajarishini kuzatdim. Bir o'quvchimning hech narsa yozmayotganini ko'rib, yoniga bordim va sababini so'radim, u esa tushunmaganligini, hayotda bu mavzular qanday asqotishi mumkinligini so'radi. Achnarli, hech narsa deya olmadim, faqtiniga, har holda, senga keraksiz bo'lgan narsani darslikka kiritmaydi-ku, dedim xolos. Bunga o'xshash voqealarga ko'p duch kelmoqdamiz. Natijada o'quvchilar darsliklarda mashqlar yuzasidan e'tiroz bildirmoqda. Qolaversa, yangi darsliklardagi ayrim topshiriqlarning mazmunan takroriyligi va bir xilligi o'quvchilarning qiziqishi so'nishiga sabab bo'imqoda.

Lekin yangi darsliklarni bilan ishslash yaxshi, ayrim mavzular osonlashtirilgan quvonlarli. Qolaversa, "Lug'atlar bilan ishslash" mavzusi joylashtirilgan ona tilimizni yanada chuquroq egallash, so'zlarining

ma'nosini teran anglashda foydali. So'z boyligi oshadi. Biroq bir savol meni qiyayndi: "Haqiqatan ham, maktablar lug'atlar bilan ishslashga tayyormi, maktab kutubxonalarini lug'atlar bilan ta'minlanganmi, qachon biz lug'atlar bilan ishlaymiz?" Bunga o'xshash savollarni boshqa hamkasblarimda ham bisyor deb o'layman. Darslikda mavzuba bo'lsa-yu, manba bo'limasa, bundan ne naf? To'g'ri, shahar maktablari o'quvchilarining foydalananish uchun uyali aloqa vositalari mavjuddir, ammo chekka hududlardagi maktab o'quvchilar niima qilsin? Uyali aloqa vositalasi yo'q, bo'lsa ham internet sifati yaxshi emas, kutubxonada manba mayjud emas. Xo'sh, o'quvchilar vazifani qaysi manbadan foydalangan holda bajaradi?

8-sinf o'quvchilariga ona tili darsida "Lug'atlar bilan ishslash" mavzusiga kelganda so'zlarining ma'nosini to'laroq yoritib berishga harakat qilaman. Ammo darslikda lug'atlarini topib ma'nosini izohlash o'quvchilarga topshiriq sifatida berilgan. O'quvchilarining "Nega bizning kutubxonada lug'at kitoblar yo'q?", "Boshqa maktab kutubxonalarida lug'atlar mavjudmi?", "Qachon har birimiz alohida lug'at bilan ishlaymiz, balki ungacha maktabni ham bitirarmiz?" degan savollari ga nima deb javob berishni ham bilmayman. Chunki haqiqatan ham maktablar lug'atlar bilan ishslashga tayyor emas. Ushbu mavzular darslikka kiritilishidan oldin maktab kutubxonalarini lug'at kitoblar bilan ta'minlanganligi kerak emas midni?

Gulniso TOLIBOVA,
G'iyduvon tumanidagi
30-maktabning ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi

Attestatsiya diplomdan kuchlimi?

2011-yildan keyin attestatsiya jarayoniga qiziqmay qo'yanman. Sababi, o'sha yili attestatsiyaning 1-bosqichida testdan o'tib, 2-bosqich – suhbат uchun Farg'onaga borganmiz. U yerda 7 kishidan iborat komissiya 50–60 betlik fayl(ish faoliyatim aks ettirilgan)ni ko'rib chiqdi. Rosa maqtashdi, keyin esa arzimagan sababga ko'ra oliy toifadan mutaxassis maqomiga tushirishdi. Shu bo'ldi-yu, attestatsiyaga qiziqmay qo'ydim.

2020-yil 10-yanvar kuni Farg'ona shahridagi 27-maktabga attestatsiyaga bordim. 40 ta mashq tushdi. Bajarish uchun 1 soat-30 daqiqa berildi. 30 ta mashq ishladim. Lekin yetarli ball to'play olmadim. Eng qizig'i, nomutaxassis maqomi berildi menga. Bu degani — attestatsiya diplomdan kuchli deganimi? Diplomda esa quyidagi so'zlar yozilgan: "Umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi". 36 yildan buy-on maktabda ishlayapman. Jarayonning hammasini yaxshi bila man. Yoshim 57 da, xotira pand bermoqda. Lekin dars jarayoniga alohida tayyorgarlik bilan kiramman.

Biz o'qigan davorda pedagogika, metodika, psixologiya fanlari juda yaxshi o'qitilgan. 3-kurnda passiv amaliyotga chiqilgan, baho olmaganlar stipendiyadan qoldirilgan. 4-kurnda aktiv amaliyotga 45 kun chiqilgan, baho olmaganlar diplom olishga qiyonalishgan va hokazo.... Mustaqilligimizning ilk davrida 2 yil qiyinchiliklarni bo'ldi. Shunda ham maktabni tashlab ketmadik, chidadi, o'shanda hozir toifasi si borlar bozorga qochishgandi. Lekin hozir... **Yana bir muammo ta'lim sifatini ko'taraylik deb bong uryapmiz, lekin ta'lim sifati attestatsiya jarayoniga bog'liq bo'lsa, ular sifat tushishinga 100 foiz sababchidir.** Isbot — men borgan 2-toifa olish uchun attestatsiya jarayonidagi

holatni qarang. Maktabdan nazoratchi 5-6 nafar, IIB xodimlari, zalda 20 nazoratchi, men toifa uchun emas jarayonni kuzatish uchun bordim va ko'rdim. Berilgan 40 ta mashqdan 2-3 tasi maktab dasturidan olingen, xolos, qolganlari esa oliy matematikadan.

Biz maktabda darslik bilan ishlaymiz, chunki davlat rejasi bor, bajarish shart! Agar o'tayotgan darslik bo'yicha test olinsa 90% o'qituvchi 100% bajaradi.

1-taklif: Agar ta'lim sifatini ko'tarish kerak bo'lsa, attestatsiya jarayonini o'zgartirish kerak. Boshlang'ich sinflarda: savollar 1-4-sinflar darsligi bo'yicha; yuqori sinflarda: 5-11-sinflar darsligi bo'yicha tuzilsa, deyarli 90 % o'qituvchi jarayondon o'tadi va ta'lim sifati albattra ko'tarilgan bo'lardi.

Shunda ham attestatsiyadan o'tganlar bor-ku dersiz. Kimlar o'tdi? Repetitorlik qilayotganlar o'tdi. Ular esa maktabda ja-moat topshirig' bilan shug'ullanmaydi, faqat o'z ishini qiladi.

O'qiyman, o'qishga kirisim kerak degan o'quvchilar repetitorliga boryapti, dars payti boryapti, 6-7 soat dars o'miga 1 ta fanni o'rganyapti. Repetitor faqat ta'limga javobgar, maktab o'qituvchisi esa ta'limga ham, tarbiyaga ham. Tarbiya esa bugungi kunning muhim talabi bo'lib qolmoqda. Repetitor faqat ta'lim bilan shug'ullanadi.

Maktab o'qituvchisi tarbiya bilan birga bo'shligi bor o'quvchi bilan ham shug'ullanadi. Maktab o'qituvchisining vazifasi ko'p.

2-taklif: Qisqasi, attestatsiya jarayoni va toifalarning umuman keragi yo'q. O'qituvchilarga ish stajiga qarab ustama to'lansin:

3-5 yil: 100 ming so'm;

6-15 yil: 150 ming so'm;

16-20 yilgacha: 200 ming so'm;

20-40 yilgacha: 250 ming so'm.


1. Bunda ham jarayon sod-dalashadi, ham juda katta mablag' iqtisod qilinar edi. Korupsianing oldini olishga muvaffaq bo'lamiz.

2. Stajiga qarab ustama belgilash noto'g'ri bo'lsa, I, II toifalarni TXTB, oliy toifani Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi berishini taklif qilaman.

3. Inspeksiya oliy toifa berish, kollej o'qituvchilar attestatsiyasi, institut o'qituvchilar attestatsiyasi bilan shug'ullansin.

4. Agar huquq faqat Inspeksiya qolsa, TXTB va VXTB xodimlari nima qilishadi, ular tomoshabnimni?

Mutaxassislikdan II toifaga o'tishga ham Inspeksiya aralashsa, qiziq-da. Axborotnomadan tayyor testlarni dasturlashtirish TXTB xodimlarining ham qo'llidan kelsa kerak. Bu faqat TXTB monitoringiga ishonchszilik, xolos.



Bu gaplarim albatta kimlaradir yoqmaydi, xulosa chiqarishdan oldin maktabda bir kun 6 soat dars o'tib bering, keyin meni tushunasiz.

3-taklif: maktabda o'tilayotgan 10-11-sinf matematika darsligi bo'yicha.

1. **10-sinf I kitobidagi 5-, 18-mavzular o'quvchi uchun qiziq emas, bolalar zerikyapti.**

2. Tenglamalarni taqribiye yechish mavzusi ham. O'quvchi 10-sinfdan repetitoriga boryapti. Demak, 10-sinf kitobidagi 15 ta mavzu va mashqlarni qo'shish kerak.

3. **10-sinf darsligi II qismida** "Ko'rsatkichli va logarifmik funktsiyalar yordamida modellashtirish" mavzusini o'rniga boshqa mavzu kiritish kerak.

4. IV bobdagi 86-dan 91-gacha mavzularni o'zgartirish lozim.

5. **10-sinf geometriya darsligi sifatida 1993-yilda** chop etilgan A.V.Pogorelov mualliffigidagi geometriya kitobini olish kerak.

11-sinf uchun algebra I kitobidagi 1-2-mavzularni almashshtirish lozim. "O'zgaruvchi

miqdorlar", "Orttirmalarning nisbati". 29-32-mavzularni "Hosila yordamida modellashtirish" ga almashtirish kerak.

Algebra II kitob
57-mavzudan 85-mavzuga-cha qayta ko'rib chiqish zarur. O'quvchilar uchun qiziqarli mavzularni tanlaylik, chunki bolalar endi o'rta maktabda o'qimoqda.

11-sinf algebra darsligi 1977-yilda chop etilgan A.M.Kolmogorovning "Algebra va analiz asoslari" o'quv qo'llanmasidan foydalanim yozish kerak.

Oldinlari biz o'qigan paytda nashr etilgan darslikda xatoliklar bo'lsa, shu bo'yicha tuzatishlar kelar edi, mana 2 yil o'tdi, hech qanday tuzatimalar kelmadи. Lekin darslikda xatoliklar juda ko'p.

Xulosa: "Mutaxassis maqomiga loyiq emas" so'zlarining o'rniga "Diplom bo'yicha o'qituvchi" so'zlarini ishlatsila, 4-5 yil institutda o'qigan o'qituvchilar kamtsilmagan bo'lar edi!

Rustamjon SHERMATOV,
Dang'ara tumanidagi
26-maktabning matematika
fani o'qituvchisi

qilishdi... Men esa go'yoki naq 10 yoshga yoshardim.

Amir Temur tavallidt ayyomiga bag'ishlab tadbir o'tkazdim. O'quvchilarimga "Faxriy yorliq"lar, sovg'alar ulashdim. Tadbir o'tkazilgan sinfdan ota-onalar majlisini tashkil qildim.

Direktorimiz "Endi 1-toifaga tushdim deb bo'shashmang" dedi. Bo'shashdigan ahmoq yo'q. Hayot davom etadi. Yangi o'quv yilini, fan olimpiadasining respublika bosqichini intiqilq bilan kutyapman. O'quvchimning bilimi Prezident maktablarida, ijod maktablarida o'qiydigan o'quvchilarining bilimi bilan solishtirib ko'rishim kerak.

Test natijalari bilan o'rtoqlashganim dan so'ng, telegramdagagi aksariyati guruhdoshlari tomonidan mening bu ishim tanqid qilindi.

"O'zingizga ziyon qilibsiz, oila budjetiga zarar qilibsiz" deyishdi. Ammo baribir yengil tortdim. Test natijalari tufayli toifasi tushib ketgan ko'plab mahoratlari, tajribali ustozlar oldidagi xijolatdan qutuldim.

Normamat ESHONQULOV,
Oltinsoy tumanidagi
63-maktab tarix fani o'qituvchisi

"Yiqilishni uddaladim!"

Attestatsiya ham o'tdi. Rosti bu yilgi test savollari judayam oson ekan.

Ayniqsa, tarix fanidan. Turli telegram guruhlarida repetitsion testlar olib borilganligi natija berdi. Test sinoviga kirgan ko'pchilik o'qituvchilar topshiriq-larni uzog'i bilan 10-15 daqiqa ishlab chiqishdi. Navbatim uchinchi smenada edi. Tumanimizdan kelgan o'qituvchilar orasida mendan 7-8 yosh katta, fidoyi, mehnatkash bir ustozga ko'zim tushdi. Oldingi attestatsiyada ham test sinoviga birga kirgan edik. O'shanda men olyi toifaga o'tgan bo'lsam, ustoz birinchi toifaga tushib ketgan edi. Usto besh yil oldingi holatidan ham ancha o'zini oldiribdi, xiyagina keksaygan.

Nafaqaga chiqqanlarning toifasi saqlanadi, bekorga ovora bo'libsiz-da, us-toz, — dedim.

Direktorga endi dam olishga keta-man, toifa kerak emas, desam, "Maktabning reytingi uchun kerak" deb ko'nmadim, — javob berdi ustoz.

U nafaqat viloyatda, balki mamlakatimizda ham sanoqli maktab muzeylaridan birini tashkil etishga umrini bag'ishlagan, yoshi oltimishdan oshgan bo'lsa ham depu-tatlikka sayylanib, kengashlarda faol ishti-qishini kutyapman...

...Usto sinovdan allaqanday bir kayfi-yatda bo'shashib chiqdi. O'tolmabdi...

Bir haftacha avval, "Ma'rifat" mushtariylari telegram guruhida attestatsiya haqidagi bir tortishuvdan so'ng, bir test kam ishlab toifamni ramziy ravishda tushirish niyatim borligini yozgandim. Ko'pchilik guruhdoshlari bunday qilmaslikni maslahat berishgandi. 8-10 daqiqa da testlarni bir sidra ko'rib chiqdim. 39 test aniq. Bitta murakkab testning ikki noto'g'ri javobini chiqardim, ammo qol-

gan ikkitadan bittasini chiqarishda xotira pand berdi. O'zim bilan kurashishni boshladim. Bir ko'nglim "Bo'ldi, 97,5 ball ham yetadi, testni yakunla, deydi, biri esa "72,5 balga ko'nmasang, maqtanib nima qilarding" deydi. Bu vasvasadan qutulish uchun, sheringma 10-15 ta testni ishlashga yordamlashib yubordim. Baribir vasvasani yenga olmadim. Ba'zi testlarning javobini noto'g'ri belgilay boshladim. Shu tarqa 10 ta testni xato ishladim. Testni yakunladim. Monitor-da 72,5 ball ko'ringach niyoyatda yengil tortdim. "Men buni uddaladim!".

Qushday yengil his qildim o'zimni. Niyo-yat birinchi toifaga tushdim. Umrini ta'limga bag'ishlagan, mahoratlari, tajribali, ammo bitta yoki ikkita testni xato yechgani uchun quy'i toifaga tushib ketgan va "bilimsiz" deya kamtsilish keladigan ustozlar bilan bir safda bo'lish baxtinga musharraf bo'ldim. Go'yo yelkamdan tog' quladi... Ha-ya, bugun direktorimizning, ilmiy bo'lim mudirining fig'oni falakka chiqdi. XTBDagilar ishonmay qo'ng'iroq

Mulohaza

Qaysi yozuvni mukammal deb o'ylaysiz?

Bugungi kunda lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosini isloq qilish borasida qizg'in bahs-munozaralar davom etmoqda. Kimdir mavjud alifboni o'z holicha qoldirish tarafdoi bo'lsa, kimdir yana kirill yozuviga qaytishni taklif etmoqda. Yana kimdir to'rtta harfni o'zgartirmoqchi yoki birvarakayiga alifboni to'liq isloq qilmoqchi.

Kimdir *u* ni kiritmoqchi, kimdir *ng* ni chiqarib tashlamoqchi, yana kimdir *x* bilan *h* ni bitta qilmoqchi. Xullas, *ba'zi* zi-yolilarimiz alifbomizni go'yo plastilin-u, uni istalgan vaqtida istalgan shaklga keltirish mumkin deb o'yashmoqda...

Menimcha, eng avvalo, arab grafikasiga asoslangan qadimiy yozuvimizni yo'qotishning o'zi millatimiz uchun buyuk bir fojia bo'lgan. Shundan keyingi o'zgarishlar va islohotlarning tarasisi xuddi birlinchidan galda bo'lganidek, siyosiy iqlimning o'zgarishiga moslashtirib borilgan tadbirdan boshqa narsa emas. Xo'p, mayli keling, o'tgan ishlarga salavot deylik.

Shu ma'noda, bugungi islohot nega kerak bo'lib qoldi degan savol oraga tushadi. To'g'ri, alifbomiz mukammal emas. Biroq dunyodagi qaysi yozuvni mukammal deb o'ylaysiz? Xitoy yoki yapon iyeroglislarini yozish osomsoni? Har holda *sh* bilan *ch* ni yozishdan oson bo'limasa kerak. Yoki bo'limasa ingliz tilida imlo bilan talaffuz umuman mos kelmaydi. Nemis yozuvida esa ayrim tovushlar, masalan *ch*, to'rtta harf (*tch*) bilan ifodalananadi. Ular erinmasdan, *sh* ni, *x* ni ham ucta yoki ikkiha harf bilan ifodalaydi. Bu holat ularning savodxonligiga yoki tejamkorligiga salbiy ta'sir qilmayapti, shekilli, yozuvini isloq qilishmayapti. Bu masalaning bir tomoni. Endi uning ikkinchi tomonini ham olib ko'rakly.

Alifbo isloq qilinsa, millionlab pasportlar, guvohnomalar, shahodatnomalar, kitoblar, bannerlar, reklamalar, stendlar, peshlavhalar almashtiriladi. Milliardlab pul banknotlari, ko'rgazma vositalar, test to'plamlari, ish qog'ozlari... Qo'yingsi, olam-jahon hujja va bitiklarni yangilashga to'g'ri keladi. Bularning xarajatini kim ko'taradi? Albatta, "islohot" o'zining bir chekkasidan chiqib ketadigan so'z. Ammo uning ortida nima turganimi ham o'ylab ko'rish kerak, chamamda.

Koshkiydi, buning ustiga, islohotchilarning iddaolari biorib ilmiy yoki jiddiy isbotga tayansa edi. Ularning bari gapi osongina inkor qilinadigan yengil dalillar, xolos. Bu fikrimizni OAVlarda chiqish qilayotgan tilshunos va adabiyotshunoslari:

Baxtiyor Mengliyev, Qozoqboy Yo'ldoshev, Eldor Asanovlar ham ta'kidlab turishibdi.

Men 25 yildan buyon yoshlarga yangi alifbo asosida tahsil berib kelmoqdamen. Shu paytgacha o'quvchilar bilan alifbo xususida biror mushkullik paydo bo'lganini eslay olmayman. Ilgari kirill yozuvida ishlaganimizda *q - k*, *x - h*, *y - ye*, *yo - ē*, *io - yu*, *ya - a* ning yozilishi ustida muammolar turar edi. Yangi lotin yozuvida ushub anglashmovchiliklarga chek qo'yildi. Menimcha, yangi alifboning yutug'i tilimizdagi barcha so'zlarni aniq ifodalash uchun harf va harf birikmalarining mavjudligidir. Uning biroz noqulayligiga kelsak, bu alifbomiz qayta isloq qilishimiz uchun jiddiy asos bo'la olmaydi. Uning barcha kamchiliklarini bosib ketadigan bitta jihat - o'zbekcha so'zlarni istalgan kompyuter yoki gajetlardagi klaviatura bilan bemalol ifodalash mumkin. Buning uchun unga hech bir yangi harf kiritishning hojati yo'q. Yozuvimizning jinday murakkabligiga kelsak, bu holat fikriy tanballigimizga biroz barham beradi, degan mulohazam ham yo'q emas.

Milliy yozuvimiz xuddi bayrog'imiz, gerbimiz yoki tilimiz kabi davlatimizning muqaddas ramzlaridan biridir. U har gal zamona zayli bilan yangilanadigan matloq emas.

R.S. Shu o'rinda yana bir mulohazani ayтиб o'tmoqchiman. Alifbomiz isloq qilingan taqdirda ham, hozirgi yozuvni birdan yo'qotish joiz emas. "Shox"li va "dum"li harflarga bosqichma-bosqich asta-sekin o'tilishi kerak. Chunki alifbo islohotining yukini birlinchidan bo'lib tortish o'qituvchilarining zimmasiga tushadi. Shunday ekan, yangi alifbo islohotiga doir qaror qabul qilinishida biz — amaliyotchi pedagoglarning fikrlarimiz ham inobatga olinishi kerak.

Xudoyberdi KOMILOV,
oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi,
fauxriy pedagog

Lotin alifbosida o'zgarilishi kutiylotgan to'rt harf o'quvchilar ongiga qanday ta'sir qilishini bilish maqsadida doskaga so'zlarni o'zgaruvchi harflarda yozib, o'quvchilar bilan talaffuz qilib ko'rdik: bosh-boş, besh-beş, ol-qish-olqiş, chorak-corak, chevar-cevar, charmdan-carmdan...

4 tovushni tajribada sinab ko'rdim

Tajriba natijasi shuni ko'rsatdi, "g" va "o" harflarini o'qishda qiyinchilikka uchramadig-u, lekin "sh" va "ch" harflarini talaffuz qilishda ancha muammolarga duch keldik.

Sababi, salkam 30 yildan beri o'zbek alifbosida 29 harf va 30 tovush bor deb uqtirib keldik va shu bergan bilimlarimiz asosida o'quvchilarimiz savod chiqarib kelmoqda. Bugunga kelib esa bu o'zgarishlar natijasi biz o'qituvchilarini yolg'onchiga chiqarmadimikan? Shu paytgacha o'rganan va yosh avlodga o'rgatgan bilimlarimizni endi o'zgartirib, jamiyatimizdagи savodsizlikni ortirib qo'yamaymizmikan?

Shu harflarni o'zgartirish kerak ekan, nega oldinroq bu ishlar bajarilmadi? Shundoq ham hozirgacha ko'plab idora-korxonalarda, adashmasam, 70-75 foiz kishi kirill yozuvida ish yuritadi. Alifbomiz lotin yozuviga asoslanganmi, demak, 4 harfni o'zgartirishdan ko'ra davlat muassasalaridagi yozuvlarni lotin alifbosiga o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'larmidi. Kirill yozuvida davrida ta'lim olgan insonlarning aksariyati hozirgi alifboni o'qiy olmaydi. O'z o'rinda, o'zgaradigan 4 harf ham maktabni tamomlagan yoki tamomlayotgan yoshlari uchun salbiy ta'sir ko'rsatmasmikan!?

Anvar ESHAYEV,

Qo'shrabot tumanidagi
4-maktabning boshlang'ich sinif
o'qituvchisi

Alifbo umriboqiy bo'lishi kerak

Lotin yozuviga asoslangan amaldagi o'zbek alifbosidan foydalishan jarayonida uni takomilashtirish kerakligi ma'lum bo'la bordi. Chunonchi, o'zbek alifbosi 28 ta harf (shulardan uchtaşı harflar birikmasi), bitta tutuq belgisidan iborat edi. Amalda foydalanan davomida o' va g' harflarini ifodalaydigan ko'chish belgisi o'ylab topildi. *U* tovushi s va ts harflari bilan ifodalananidan bo'ldi. Natijada s harfi alifboda ko'rsatilmagan holda ham s tovushini, ham *u* tovushini bildira boshladi. *Is* *hq* kabi so'zlarda s'h sh deb o'qilmasligi uchun ikki harfiy belgi orasiga tutuq belgisi qo'yish tavsiga qilindi, ya'ni o'zbek alifbosi qoidalarida avvalboshdalar ko'zda tutilmagan til hodisalarini aks eta boshladi. O' va g' harflari ikki harf o'mini egallaydigan bo'ldi: ko'chish belgisi harf yonidan bir harf kabi mustaqil joy oldi.

Yuqorida holatlardan amaliyotda muayyan qiyinchiliklarni tug'dirayotgan edi. Buni aniq his etgan tilshunoslardan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini isloq qilish g'oyasini ilgari sura boshladi. Ma'lumki, alifboning islohi ma'lum sarf-xarajatlar bilan amalga oshadi. Shunga

ko'ra ham isloq masalalariga o'ta mas'uliyat bilan qaraldi. Nihoyat, "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida o'zgartirishlar kiritish haqida"-gi konun loyihasi muhokamaga qo'yildi.

Qonun loyihasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida lotin yozuviga asoslangan 28 harf va 1 ta harflar birikmاسidan iborat yangi o'zbek alifbosi taklif etilmoqda. Asosiy o'zgarishlar quyidagi harflar bilan bog'liq:

G' => Ḡ

O' => Ö

Sh => Ş

Ch => Ç

Taklif qilingan o'zgarishlar o'zbek alifbosini ixchamlashtirish, amaliy jihatini kuchaytirish imkonini berishi aniq. Lekin bu alifbo ham mukammal emasdek ko'rinati. Sababi, birinchidan, o'zbek tilining lug'at tarkibidan mustahkam o'rinni egallagan *u* tovushi yozuvda s va ts harflari bilan yozilib, ko'plab chalkashliklarga (biri o'rniда ikkinchisini yozish) duch keliyatgan so'zlar isloq qilimay qolib ketmoqda, ikkinchidan, yuqorida to'rt harfning belgilarida kirill yozvidan foydalanganda uchraydigan qiyinchiliklar takrorlan-

moqda, ya'ni unifikatsiyani (bir xillikni) ta'minlashga muhtoj, uchinchidan *Ḡ* va *Ö* o'harflari belgi shu harflar ustiga to'g'ri chiziqcha tarzida qo'yilganki, o'qish payti to'g'ri chiziqchaniteza tanish qiyin, to'rtinchidan, *S̄* va *Ç* ç harflarida belgi shu harflar ostidan joy olgan. Bu holatlarning hammasi qabul qilinacaq yangi o'zbek alifbosining qusurli bo'lishiga o'rinni goldiradi. Bu qusurlar borib-borib yangi o'zbek alifbosini yana bir bor isloq qilish g'oyasini o'rtaga chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Vaholanki, bu gal qabul qilinadigan yangi alifbo umriboqiy, abadiy bo'lishi kerak.

Yuqorida sanalgan kamchiliklarni birma-bir ko'rib chiqaylik.

O'zbek tilining lug'at tarkibidan mustahkam o'rinni egallagan *u* tovushi yozuvda s va ts harflari bilan yozish kerakligi yangi o'zbek alifbosida ko'rsatilmas ekan, alifboning nomukammalligiga o'rinni goldiradi. Alifboda s harfi faqat s tovushini anglatadi, deb belgilanadi. Lekin uni *u* o'mida ham qo'llash lozimligi alifboda aks etmagach, alifbo yana

nomukammallik kasb etadi. Bunday bo'lmasligi uchun alifboga yana bir harf-tovush kiritish lozim ko'rinati: C c harfi. Natijada amaldagi alifboda o'zi alohida olinganda tovush anglatmaydigan harfiy belgi o'ziga munosib nom oladi.

Isloq qilish taklif etilayotgan to'rt harfning suratida bir xillik yo'q: *Ḡ* va *Ö* o'harflida belgi (to'g'ri chiziqcha) shu harflar ustiga qo'yilgan, *S̄* va *Ç* ç harflarida belgi shu harflar ostida. Birinchidan, harf usitidagi to'g'ri chiziq ingichka va ko'zga yaqqol tashlanmaydigan bo'lgani uchun bugungi globalashgan, axborotlashgan davrda o'qish tezligining yuqori bo'lishiga imkon bermaydi.

O'qiyotgan odam belgini aniq ko'rish uchun bir soniya bo'lsa ham, to'xtashga majbur bo'ladi. Harf ostidagi belgilarni yozuvda ifodalash qiyinchiligi bor. Belgilarni harflar tepasiga qo'yilganda esa kitobxon bir xil harakatga odatlanadi, natijada o'qish sur'ati yuqori bo'ladi. Lekin harf ustidagi to'g'ri chiziqchadan ko'ra yoysimon chiziq ma'kulroq: kirill yozuvida ſ va ū harflarini tanish tezligi ular ustidagi chiziqchaning yoysimonligi

bilan ta'minlanganini eslasak, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida ham shu yo'ldan borgan yaxshi. Bunda kompyuterda mavjud bo'lgan quydagi yoysimon belgiligi bosma harflarindan foydalishan mumkin: Š š, Č č, Ö ö, Ḡ g.

Takliflarimiz o'zbek alifbosing umriboqiyligini ta'minlash uchun xizmat qiladi, deb o'yaymiz. Takliflarimizni umumlashtiradigan bo'lsak, ular quydagilar:

U tovushi uchun *C c* harfini kiritish;

Ḡ va *Ö* o'harflari ustidagi to'g'ri chiziqli belgini yoysimon bilan almashtirish: *Ö ö*, *Ḡ g*.

S̄ va *Ç* ç harflarida belgini harf ostidan harf ustiga olish va belgi sifatida yoysimon belgidan foydalish: *Ş ş*, *Č č*.

Shu mazmunda isloq qilinadigan, alifboda quydagi harflar kiritilishidan taklif etamiz:

G' => Ğ ġ

O' => Ö ö

Ts => C c

III => Š š

Ch => Ç č

Shunda, bizningcha, yangi o'zbek alifbosi 29 harf, bir tutuq belgisidan iborat bo'lib, mukammallik kasb etadi, amaliy ahamiyati ta'minlanadi.

Rustam YO'LDSHEV, pedagogika fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi

Mushtariy muhokamasi

Attestatsiya o'qituvchi uchun imkoniyatmi yoki adolatsizlik?

Shu kunlarda o'qituvchilar uchun eng dolzab mavzu — attestatsiya. Navbatdan tashqari sinovlarda ishtirot etgan va sinov oldida turgan pedagoglar telegram tarmog'i idagi "Ma'rifat" mushtariylari guruhida mavzu doirasida rosa bahslashishdi. E'tiborlisi, har bir o'qituvchining bu borada o'z yondashuvi, shaxsiy munosabati va taassurotlari bor.

**Muyassar ABDURAI-
MOVNA, o'qituvchi:**

— Boshlang'ich sinf o'qituvchilar attestatsiyasida ustozlarning ahvolini ko'rib ham xo'rligim keldi, ham uyaldim. Sho'rlik ustozlar to'p-to'p bo'lib qo'lida o'quvchilar uchun berilgan darsliklarni ko'tarib olishgani. Vaqtadan unumli foydalanish maqsadida faqat o'qishmoqda. Ba'zilari esa ichkaridan kimdir chiqsa, yugurib borib, atrofini o'rabi "Qanday savollar tushdi?" deb so'raydi. Ana shu jarayonga qarab turib, ustozlarni manziliga olib kelayotgan taksichilardan uyaldim. O'qituvchilar u yoqdan bu yoqqalar zir yugurib, o'tirishga joy topsa o'tirib, bo'lmasa tik turib kimdir shpargalka, yana kimdir duo o'qigan, yana kimdir ichkaridan chiqqadiganlarni umidvor kutgan... Jamiatning eng hurmatli kishisiga aylantrishga urinilayotgan, xalqning bolasini ilmli qiluvchi kasb egalarini bu holatda ko'rish juda achnarli. Pedagogni shu ahvolda ko'rgan odamlar farzandi kelajakda o'qituvchi bo'lishini xohlaydim? Yana bir masala, attestatsiya topshirayotgan pensiya yoshiga yetib qolgan ustozlarning muammosi yoshlarniga nisbatan yanada og'ir. Ular shu attestatsiyadan o'tolmasa, maoshi kamayib ketadi(chunki ko'philigi 1-toifali pedagoglar). Keyin o'sha ozayib qolgan oylik maosh bilan pensiya-chi qo'shisiga, pensiya miqdoriga ta'siri bor. Nima uchun umrining yarmidan ko'pin maktaba, ta'llimga sarflagan, kamida 20-25 yillik pedagogik stajga ega o'qituvchilar attestatsiyadan o'tishi shart? Yosh, hali asabliy joyida, xotirasida ham tiniq bo'lgan pedagoglar uchun testlarda tushadigan savollarning javobini yod olish qiyinmas, ko'rinib turibdi-ki, attestatsiyadan o'tgan ustozlarning ko'philigi yoshlar. Ana endi birgina attestatsiya uchun umrini maktaba fido qilgan ustozlar nima uchun pensiyaga ketish jabhasida 1-toifa yoki olyi toifadan "tushib" ketishi kerak?

**Muzaffar ISMOILOV,
Andijon tumanidagi 38-maktab o'qituvchi:**

— O'qituvchi abituriyent emas. Hech qachon yiqilmaydi. Uni yiqitishadi. Attestatsiya o'qituvchining obro'sini to'kib yuboradi. Yaponiya, Singapur, Finlandiya ta'limalda test attestatsiyaning o'zagimi? O'qituvchilar ham, o'quvchilar ham ilm o'rganish o'rniga test yodlayapti. Test attestatsiya degani emas. O'qituvchini abituri-

yentga aylantririb qo'yishapti. Toifbelgilashda ish stoji ham hisobga olinishi lozim. Hozirgi attestatsiya o'qituvchi oyligini pasaytirishga qaratilgan. Besh yuz ming o'qituvchi nega bu masxarabolikka chidab kelyapti?

**Erkinjon YARASHEV,
Zarafshon shahridagi 13-IDUM
o'qituvchi:**

— Tasavvur qiling, 45-50 yoshli o'qituvchilar attestatsiya yaqinlashgan sari uyida, ishida halovatsiz bo'lib qoladi. Kuchli stress, xavotir, depressiyani boshdan kechiradi. Oila, uy yumushlari, darsni samarali tashkil qilishga urinishlar va harakatlar bir chetga suriladi. Faqat test. Darhaqiqat, u hayot-mamotga aylanadi go'yo. Chunki buning orida shaxsning qadr-qimmati, g'ururi, agar o'tolmasam, nima degan odam bo'laman, degan andisha turadi. Yosh o'qituvchilar esa bunday tug'yonlar bo'lmaydi. Ularda bilim bordir, ammolalar, ota-onalar bilan ishlash tajribasi yo'q. Katta yoshli ustozlarda esa tajriba bor-u, xotira pasayishi tabiiy.

**Gulnora YANGIYEVA,
Buxoro shahridagi 16-maktab
o'qituvchi:**

— 17 yil 1-toifa o'qituvchisi edim, o'tgan yili ba'zi sabablarga ko'ra 2-toifaga tushib qoldim. Har majlisda toifa haqida gapireshganda menga qarab qo'yishadi. Atigi bitta test savoli mening 27 yillik pedagogik faoliyatimni hal qildi. O'tgan darslarim, qancha-qancha yutuglarga erishib kelayotgan o'quvchilarim, xullas, hamma-hammasi tugagandyay go'yo, ahamiyatsizdek endi hammasi. Yoshingiz o'tgach xotira pand bereran.

**Sarvinoz SUNNATOVA,
G'ijduvon tumanidagi 47-maktab
o'qituvchi:**

— Attestatsiya haqida ko'p va xo'p gapirildi. Navbatdan tashqaridagisi juda yosh o'qituvchilarini olyi toifaga chiqarib qo'ydi. Lekin nafaqaga yaqinlashib qolganlarning testdan o'tolmay, toifasi tushayotganligi achinarli. Fanlar bo'yicha test yechish muammos emas. Chunki hammasi darslikdan Bechora boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qiyin. Nimani o'qishni bilmaydi. Boshlang'ich degan DTM testi yo'q, darslik yo'q. Qo'liga tushganini o'qiyveradi. Ularga test sal osonlashtirilsa, yaxshi bo'lardi. Har gal attestatsiya boshlanganda maktabimizdagiboshlang'ich sinf o'qituvchilariga rahmin keladi. O'zim tilshunosman. Variant, darsliklarni o'qiyman. Bizga nimadan tushishi aniq.

**Norchuchuk NORMURO-DOVA, Shahrisabz shahridagi
16-maktab o'qituvchi:**

— Attestatsiyadan o'tish — faqatgina testdan yuqori ball olish degani emas. Bugun esa ana shu "yuqori ball" trendda.

**Laylo XUDOVOROVNA,
Urganch tumanidagi 16-maktab
o'qituvchi:**

— Boshlang'ich sinf o'qituvchilar 1-4-sinfning 30 ga yaqin darslikni o'qib chiqishi zarur bo'lib qoldi. Bu bilan ularni avval bu darsliklarni o'qimagan deb bo'lmaydi. O'qishgan, darsda shu mavzularni o'tishgan. Ammo "Bahor" she'ri hamma sinfdi bor, mualliflari boshqa-boshqa. Yoki falon matndagi qahramonlar degan savollarda ismlarni chalkashtirish hech gapmas. Har bir hikoyaning qahramonini eslab qolish uchun miya kompyuter bo'lishi kerak. Yoki har bir viloyatning aholi soni, tasviriy san'at, texnologiyadan atamalar so'rlyapti. Bu ma'lumotlarni yosh o'qituvchilar yodlaydi, ammo 25-30 yillik stajga ega tajribali ustozlar chi? Bir fidoiy, mahoratlari, tajribali ustozni bilaman, chalg'ituvchi savollar sabab attestatsiyadan o'tolmadidi.

**Azzatjon AZIMOVA, Xonqa
tumanidagi 40-maktab o'qituvchi:**

— "4-sinf "O'qish" darsligi qaysi bo'limdan boshlanadi?", "1-, 2-, 3-, 4-sinf "O'qish" darsligining har qaysida qanchadan bo'lim bor?" degan savollar bor. Har yili darsliklarni yangilanib turgan bo'lsa, texnologiya, tasviriy san'at, metodikalar... xullas attestatsiya savollari bo'yicha xulosha qilsak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining xotirasi kompyuternikiday bo'lishi kerak. O'zi shundog'am dars saatlari qisqarib, oylik maoshi kamayib ketgan boshlang'ich sinf hamkasblarimning toifasi tushib kontrakt, kreditdan ortmayotgan maoshlarining yanada qisqartirilishini oqlaymayman.

**Go'zal PINYOZOVA, Yangi-
ariq tumani 31-IDUM o'qituvchi:**

— Attestatsiya 2017-yilgacha eng murakkab savollar berilgan. Hozir yildan yilga faqat darslikka oid savollar berilyapti. Darslik bo'yicha savollar esa o'qituvchiga qiyinlik tug'dirmasligi kerak. Texnologiyadan dars o'tmasligimizni bahona qilolmaymiz, chunki mutaxassisligimizda bor. Yoshi katta ustozlarning ham toifa oshirayotganini ko'p kuzatganman. Yoshlar orasida ham toifa testidan o'tib, mehnat samaradorligi yetarli bo'limgani uchun toifa ololmaganining guvohi bo'lganman. Tizim to'g'ri tashkil etilgan. Hatto 100 ball to'plab toifa oshirayotgan ustozlar anchagini. Faqat testga qarab toifa berilmayapti. Mehnat samaradorligi ham alohida ball bilan baholanib, keyin toifa berilmaydi. O'qituvchi xalqi orasida har doim norozilar topiladi.

Oldin qog'ozbozlikdan nolib yurganlar uchun konsept yozish olib tashlandi. Keyin konsept yozish zarur edi, bekor olib tashlandi, deb e'tiroz bildirilayotganidek. Inspeksiyaga faqat bitta e'tirozim bor. Texnologiya, tasviriy san'at, musiqa fani o'qituvchilari amaliy jihatdan baholanib, shunga ko'ra toifa berilishi kerak. Chunki necha yillik ish stoji bo'lib ham qo'lidan oddiy belkurakni dastalash kelmaydigan yoki umrida tikuv mashinasiga o'tirmagan texnologiyachi, notani bilmaydigan musiqachi mo'yalalamagan kadrlar faqat nazariy savollar bilan toifa oshirishiga qarshiman. Duradgorlik qo'lidan kelmaydigan texnologiyachi 1-toifa olgan. Ammo tikuvchilik ustasi bo'lgan, hatto uyidagi tikuv mashinasini maktabga olib kelib dars berayotgan katta yoshdagani texnologiya o'qituvchisi xotirasini pand berib, kasb-hunar kollejlardida o'tiladigan mavzulariga asoslangan nazariy savollardan o'tlmagan.

**Ozoda JANGIROVA,
Buxoro tumanidagi 35-maktab
o'qituvchi:**

— Ustozlar uchun navbatdan tashqari toifa olish imkoniyati berilganini ham qadrash kerakmi, deyman. Keyingi 5 yilni kutib, sarson bo'lmay, tezgina toifasini oshirayotganlar buning qadrini bilsishar(men ham shular qatoridaman). Testlar darslikdan va zamon talablariga mos mantiqiy fikrashga asoslangan topshirqlardan tuzilgan. Bilimi bor ustozlar ularni bermalol yechishyapti. Men bilan kirgan 51 yoshli ustoz 92,5 ball oldi. Qoyil, mana davr talabidagi ustoz. Garchi oliy toifaga yetarli ball ollan bo'lsam ham shu ustozga havas qildim...

Toifani faqat xotirasida kuchli, test yodlay oladigan yosh ustozlar emas, balki o'z mutaxassisligini kuchli biladigan, bugungi yoshlardan qolishmaydigan, katta tajribaga ega ustozlar ham olishyapti. Bu haqiqatni tan olishimiz kerak.

Xullas, testlar bilimi bor ustozlar uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Faqat biroz takrorlab, bilmimiz ustida ishlashak bas.

**Ziyoda MAMAJONOVA,
Kosonsoy tumanidagi
28-maktab o'qituvchi:**

— Men testda yuqori natija ko'rsatib kelaman, lekin unga qarshiman. Ba'zi yuqori ball olayotganlarga faniiga oid yozma ish berib ko'ring, fikrini og'zaki va yozma ifodalashini imtiyon qilib ko'ring, nechasi ko'ngildagidek bajara olarkan?

Biz testdagi quruq yodlashlar tufayli badiy asarni his qilish, qahramonlar bilan yashash, ular bilan g'oyibona bahslashish, o'rniga o'zimizni qo'yib ko'rish kabi tuyg'ularni "o'ldirdik".

Yangi loyiha

Ta'lif sifati ijobjiy tomonga o'zgarsa, bundan butun jamiyat yutadi.

"Boshlang'ichlar" va "Yuqorilar" o'rtaida tortishuv

Aksariyat hollarda maktabning boshlang'ich hamda yuqori sinf o'qituvchilari o'rtaida qizg'in bahs-munozaralar bo'lib turadi. Mavzu bitta — yuqori sinf o'quvchilarining asosiy fanlardan yaxshi o'zlashtira olmasligi va bunga kim aybdorligi.



Boshlang'ichdan yuqori sinflarga o'tgan ayrim o'quvchilar matematikadan oddiy masalalarini ham yecha olmaydi, hatto ko'paytirish jadvalini yaxshi bilmaydi. Ona tilidan

bayon va insho yozishda reja tuzib, o'sha asosida jo'yali fikr yozolmasligi bir muammo bo'lsa, imlo xatolaridan daftarlari "lolazor"ga aylanishi yana bir og'riqli nuqta. Nutq yo'q, tarix, adabiyot, geografiya kabi fanlardan darslikdagi mavzularni aqallli ravon o'qib berolmaydi. Har holda, bu gaplar o'qituvchilar xonasida o'tirgan yuqori sinf ustozlarining tanaffusdagi suhbatlariga o'xshaydi, shunday emasmi?

Ikki tomon ham o'zicha haq ekan, u holda ayb kimda?



Insof bilan aytganda, har ikki tomonning fikrlari da jon bor. Boshlang'ich sinf ustozlari ham, yuqori sinf fan o'qituvchilari ham qaysidir jihatlarda kamchiliklarga yo'l qo'yishmoqda. Buning oqibatida esa har bir sinfda 30–35% gacha bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar yig'ilib qolmoqda. Bu qachongacha davom etadi?

Bunday nuqsonlarni bartaraf etish kerak-ku.

Bu muammolarning oldini olish uchun esa...

Balkim ushbu g'oyam shahar joylardagi maktablar da o'zini oqlamas, ammo sinfdagi o'quvchi soni 20–25 yo undan kam bo'lgan barcha maktablarda sezilarli samara berishiga umid qilaman. Demak, biz bunday holatning oldini olish uchun bir loyiha ishlab chiqqanmiz va buni o'z maktabimizda qo'llay boshlaganmiz. Endi buni o'zimning maktabim misolida tushuntirsam.



Xo'sh, bunga sabab nima?



Yuqori sinf o'qituvchilarining da'sosi:

Boshlang'ich sinflarda asosiy fanlarga jiddiyroq yondashilmaydi. Dars ichida o'yin ko'p, guruhlarga bo'lib

musobaqa qilishadi. Rag'bat, maqtov, olqish, hammasi ofarin-u yulduzchali "5"lar. Hamma xursand, vaholani, a'lochi deb maqtagan o'quvchilarda ham hozir oqsash bo'lyapti.

Boshlang'ich sinf ustozlari ning raddiyasi: Men o'qitgan paytim bolalarim karra jadvalini 100% bilishardi. Masala va misolarni ham qynalmay yechalardan. Yozuvlari chirolyi edi. O'qishlari zo'r edi. Qanday qilib endi 6-7-sinflarga o'tib hammasi qololqa aylanib qoldi? Gap shundaki, boshlang'ichda asosiy fanlarni bir ustoz o'tadi. O'quvchilar shunga o'rganib qoladi. Yuqori sinflarga borgach esa har bitta fandan boshqa-boshqa o'qituvchi kiradi. Kirgan har bir o'qituvchi har xil xarakter, turli olam. Xafa bo'lishmasin-u, yuqori sinflarda ayrim fan o'qituvchilari 45 daqiqalarni o'tib chiqib ketas bo'ldi.



"Qabul qilish — topshirish"

Maktabimizda parallel sinflar yo'q hisobi. Sinflarda o'rtacha 20–22 o'quvchi bor. Bu yil men 4-sinfni chiqaraman. Yuqori sinflarga matematikadan dars beruvchi uch nafar o'qituvchi ishlaydi. Ona tili ustozlari esa ikki nafar, xolos. Shularni yanvar oyidan boshlab fursat topib, darslarimni kuzatishga undayman. Oz bo'lsa-da kirib turishadi. Dars o'tishim sifati hamda o'quvchilarining real vaqtidagi bilimlari bilan qiziqib borishadi. Qolaversa, shu 4-sinf o'quvchilarim 5-6-sinflarga o'tganda qynalmasliklari uchun hozirdanoq nimalarni chiniqtirib borishim lozimligini belgilab berishadi. Bu narsa menga kerak. Kelajakda "darsni yaxshi o'tmagansiz" deb ta'na qilmasliklari uchun. O'quv yili oxirida esa asosiy ishni amalga oshiramiz. Bu biz bilgan sindan sindga o'tish uchun olinadigan bosqichli nazorat emas. Men 4-sinf bitiruvchilarimni yuqori sinf matematika va ona tili ustozlariga topshiraman.

Matematika

Aytaylik, 28-may kuni matematika ustozlarini sinfga jamlab, ularning ko'z o'ngida 20 o'quvchimning barchasi navbat bilan kirib, o'z bilimlarini ko'rsatadi:

1. Karra jadvalini to'liq yod aytib beradi.
2. Ko'p xonali sonlarni yozma qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish.

Biletlardan birini oladi va doskada ishlaydi. M:

$$263\ 076 + 98\ 328 = \quad 1\ 449 \times 503 =$$

$$891\ 350 - 309\ 475 = \quad 49\ 010 : 65 =$$

3. Doskada bitta tenglama yechib berish.

4. Bir dona masala yechish.

Eslatma: Misollarni yuqoridaq ustozlarning o'zlarib shaklida qilib, 4-sinf darsligi miqyosida tuzib kejadi. Biletlar menga ham ko'rsatilmaydi.

Taxminan 2–2,5 saat vaqt ichida 20 nafar o'quvchimini yuqori sinf matematika ustozlariga shu yerning o'zida topshiraman. Ular ham o'z e'tiroflari, balki e'tirozlarini shu yerning o'zida bildirishadi, tamom. Keyin o'quvchilarim to 11-sinfni bitirgunlaricha hech kim menga ta'na-yu dashnom qila olmaydi.

Ona tili va o'qish

29-may kuni esa ona tili ustozlari bilan birga ishlaymiz. Ular ham sinov shartlari uchun biletlar tayyorlab kelishadi.

1. Diktant (60 ta so'zli).

Bu uchun matnni ular berishadi, men esa umumiy tarza diktant yozdiraman. Asosan husnixat va to'g'ri yozishga e'tibor qaratiladi.

2. Gap bo'laklari, so'z turkumlariga oid 2 tagina salovol.

Har bir o'quvchim alohida kirib bilet tortadi va og'zaki javob beradi.

3. Notanish matnni o'qitib ko'rish.

Matnlar ham bilet usulida tortiladi. Hajmi 30–35 ta so'zli.

Ushbu loyihadan olinadigan foydalar

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining 4 yil mobaynidagi faoliyatiga o'zining guvohligida haqqoniy boho beriladi.

2. Yuqori sinf o'qituvchilarini oldida uyalib qolmaslik uchun tizimli ravishda unumliroq mehnat qiladi.

3. Boshlang'ich ustozlar o'rtaida sog'lam raqobat bo'ladi.

4. Yuqori sinf ustozlari ham bundan manfaatdor bo'ladi. Qabul qilgan o'quvchilarining bilimi yaxshi bo'lsa, qynalmay o'z mavzularini o'taveradi.

5. "Boshlang'ich" va "yuqori" ustozlar ahil va hamkor bo'ladi.

6. Ta'lif sifati ijobjiy tomonga o'zgarsa, bundan butun jamiyat yutadi.

Aziz mustahar, sizga tanishirmoqchi bo'lgan loyihamiz shu edi. Albatta, buni amalga oshirishda maktab rahbariyatining roli muhim bo'ladi. Jarayon ularning nazorati ostida kechadi.

Abdulla XOLBOTAYEV,
Oqqo'rg'on tumanidagi
5-maktabning oly toifali boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Sinab ko'ring

Uyga vazifani "SMS"da bajaramiz

Har bir dars mashg'ulotining muvaffaqiyati o'quvchining uyga berilgan topshirilganlari bajarishi bilan bevosita bog'liq. O'qituvchi dars davomida o'z metodikalaridan foydalaniib, turli o'yinlar yordamida uy vazifalarini bajarish va bajarilgan ishlarni tekshirish usullarini o'rgatishi mumkin. Ayniqsa, bu boshlang'ich sinf o'quvchilarini uchun katta foysa beradi.

Misol uchun, "SMS" (qisqa xabar uzatish) didaktik o'yini bu borada yaxshi samara beradi. Bu o'yin mavzuni mustahkamlash jarayonida o'ynalib, uyga berilgan topshirin qiymatini qaydarada o'zlashtirganini aniqlash maq-

sadida foydalilanadi. Yangi mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilar 5-6 nafardan iborat kichik guruhlarga bo'linishi shadi. Bunda ular yangi o'tilgan mavzuni yuzasidan qabul qilgan ma'lumatlarini qisqa xabar tarzida bayon qiladilar.

Har bir o'quvchi bajargan ishlarning bayonini qisqa xabar, ya'ni SMS tarzida uzatadi. Bajarilgan ishlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi ustoz tonidan muhokama qilib boriladi. Olaylik, boshlang'ich sinflar uchun berilgan "Amir

Temur haqida" mavzusi yuzasidan kimdir podshohligiga urg'u bersa, boshqa bir o'quvchi Amir Temur o'g'italarini misol tariqasida keltirishi mumkin. Natijada bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, xotirasiga mustahkamlanib boradi. Fikrini erkin va mustaqil bayon qila bilish qobiliyatini shakllanadi.

Sharbatoy SHOMURODOVA,
Tuproqqa'l tumanidagi
9-maktabning oly toifali boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Intervyu

Isroil Tillaboyev: “PISAda past ball olsak kerak”

“Sizlarga vasiyat qilaman. Maorif yo'lida ishlaydurg'on muallimlarining boshini silangiz! Oradan nifoqni ko'taringiz! Turkiston bolalari ilmsiz qo'ymanzizlar!” degan edi Mahmudxoja Behbudiy. Darhaqiqat, ta'lim yo'lidagi to'siqlar olib tashlansa, imtiyozlar yaratilsa davlat ham, xalq ham manfaatdor bo'ladi. Bugun boshqa sohalarda bo'lgani kabi xalq ta'limi tizimida ham o'qituvchi xalqining dardini baralla atyib chiqayotgan, mavjud muammolarni yuzalantirib, mutasaddi-rahbarlarni chin ma'noda “uyg'ota olayotgan” jurnalist va blogerlar jamiyatning eng faol qatlamiga aylanib bormoqda. Suhbatdoshimiz – o'qituvchi-bloger Isroil Tillaboyev.

— Isroil aka, sizningcha Behbudiy bobomizning vasiyatini bugun hukumatimiz to'kis ado eta olyaptimi? Shuningdek, mamlakatimizda o'qituvchilar zimmasidagi mavjud qaysi yuklamalarini hali ham ortiqcha, asosiy maqsaddan chalg'itadi, deb hisoblaysiz?

Ta'lim tizimi davlatning taqdirini belgilaydi. Bir paytlar o'qituvchilar ta'limdan boshqa ishlarga jaib qilingimni sabab o'zining asosiy ishini bajarishga vaqt yetmadi, hafsalasi ham qolmagan edi. Esimda, shu darajaga borgan edikki, tuman hokimi majlislarining birida “Falon maktabga borsam, o'qituvchilar dalaga chiqmay makteba o'tiribdi”, degan edi. Tasavvur qilavering, qanchalar ayanchli ahvolda ishlashga majbur bo'lgan o'qituvchilarimiz. Bunday byurokratik munosabatdan so'ng ommaviy tushkunlik, alamzadalik kayfiyatida berilgan ta'lim hamingqadar, yuzaki bo'lishi tabiiy. Buningda sara ko'philchik o'rta yosh toifadigilar bilimida sezilib turadi.

Mayli, “hechdan ko'ra kech” de ganlaridek, o'qituvchining jamiyatdagi obro'sini oshirish harakati boshlandi, majburiy mehnatdan ozod qilindi, qog'ozbozlikdan qutuldi. Endi ta'limning sifat bosqichi haqida maqsad qilinsa bo'ladi. 2010-yillarda 18 ta, 2016-yilda 6 ta, 2018-yilda 3 ta, va nihoyat, 2020-yilda 1 dona hujjat – jurnal to'ldirilsa kifoya bo'ladigan bo'ldi. O'qituvchi uchun bu katta qadam!

Ammo ta'limda o'qituvchilar yurigidan hujjatlar tugatilgani bilan ta'lim sifatiga javob beruvchi O'IBDO', MMBIDO' va psixologlarning hujjatları o'sha-o'shaligicha qolmoqda. Keyingi qadamda shu masala so'rovnomalar bilan optimallashtirilsa yaxshi bo'lar edi.

— Xalq ta'limi vaziri o'rbinbosari Temur Komilov “O'qituvchilarning maoshi, toifasini inobatga olgan holda 2024-yilga kelib 1000 dollarga yetkaziladi” deb ta'kidladi. Sizningcha, buni amalga oshira olishadimi?

Vazir o'rbinbosari, ayniqsa, molivayiv masalalar bo'yicha javob beruvchi o'rbinbosari aniq iqtisodiy rejalar bilan gapirsa kerak, deb o'layman. Buning ustiga, bu xususda shaxsan Prezidentning o'zi ham ko'pi ta'kidlab kelmoqda. Oddiy o'qituvchi sifatida bu juda qiyin ishdek tuyuladi mena, ayniqsa, chuquq karantindan chiqqan davlat uchun ikki yil ichida bunday ishni amalga oshirish oson bo'lmaydi, menimcha. Lekin yuqori doiradagilar aytgani uchun ham umid qila miz va kutamiz.

— Isroil aka, ikki yil avval aytgan konsept yozmaslik darajasiga yetamiz degan gapingiz bugun amalga os-hdi. Ta'limning yaqin kelajagida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yana ba'zi

ehtimollarni taxmin qilolasizmi?

— Avvalo, yaqin kelajakda o'qituvchilarining bilim sifati chuquq tahlil etilish ehtimoli katta. Ta'lim islohotlarini bilimi kuchli, salohiyati yuqori o'qituvchilar yuzaga chiqarib bera oladi. Shuning uchun o'quvchilar bilimini oshirishdan avval, o'qituvchilarining bilimi oshirib olinishi zarur deb o'ylayman. Malaka oshirish tizimi o'zgarmoqda, bu tizimni ham hanuz to'la tushunib oлganimiz yo'q. O'z iziga tushib olsa, malaka oshirish majburiy emas, balki pedagoglar o'zlarini xohlab boradigan tizimga aylansa kerak.

Yana bir taxminim borki, bu balki pesimistik qarash bo'lishi mumkin, ya'ni O'zbekiston 2022-yilda Xalqaro baholash dasturlarida qatnashadi. Bu tadqiqot mamlakatimiz uchun debocha bo'ladi va shu imtihonda, PISAda shok holatga tushsak kerak, ya'ni — past ball olsak kerak, deya taxmin qilyapman. Mabodo shunday bo'lsa ham bu fojea emas deb bilaman. Birinchi qadamni qachondir bosit o'tishimiz kerak-ku, baribir. Bu bilan O'zbekiston ta'lim tizimining dunyo ta'limida qanday o'rinda ekani, niormalarni tuzatishimiz kerakligini, xatolarimizni bilib olamiz va to'g'rilaymiz.

Taxminlarimidan yana biri, maktebdan o'quvchilariga o'zlarini istagan fanlarga qatnashish imkoniyati berilishi ehtimoli bor. Buning dastlabki elementlarini variativ o'quv usullarida ko'ryapmiz. Shu yo'nalish kuchaytirilsa kerak, deb o'ylayman.

Direktorlarni saylash masalasi ham hali katta muammolar va turli gap-so'zlarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki yangi tartibda direktorlarni depuatlar saylaydigan bo'ldi.

— Xalqimizda ajoyib maqol bor: “Qo'rqsang aytma, aystsang qo'rqa-Shubshasiz, har bir ko'tarib chiqayotgan muammo va tanqidlarigiz ortidan sizning qalamingiz tig'i qaratilgan ayrim mutasaddir, javobgar tarafalar tinch turishmaydi. Radiya berish, oqlab chiqish yo'llarini taklif qilishga yoki sizdan ustunroq odamlar orqali “silliqlash”ga urinishadi. Bunday hollar tez-tez uchrab turadimi? Va bu faoliyatizingiza qanchalik ta'sir o'tkazadi?

— Albatta, ko'p uchraydi. Axborot erkinligiga o'tayotgan davrimizda bu kutilgan holat deb o'ylayman. Iltimos qilganlarga to'g'ri tushuntirishga harakat qilaman, do'q-po'pisalar ham ko'p bo'la-di, xayriyatki, bizda, ko'z tegmasin, bunday holatlar uchun qonun yaxshi ishla moqda.

— Yaqinda Prezidentimiz Farg'onaga tashrifi chog'ida jurnalist va blogerlarga qarata “Men sizlarni yutug'imizni ham, kamchiliklarnimizni ham xalqimizgaadolatli qilib yetka-



zayotgan kuch deb bilaman, ortingizda Prezident turibdi” deya yana bir karra ishchonch bildirdi. Bu motivatsiyadan so'ng ta'lim sohasidagi qaysi og'riqli nuqtalarini olib chiqishni istagan bo'lardingiz?

— Ta'limda hali isloh etilishi kerak bo'lgan minglab muammolar mavjud. Eh-he, bularning deyarli hammasi iqtisodiga bog'liq. Masalan, maktablarining to'liq bir navbatda ishlashi, sindfa 20-25 bola o'qishi, fanlarni bo'lib o'tish masalasi, stavkaning pasayishi... Lekin baribir, ta'limni “kemirayotgan” og'riqli nuqtamiz bu — korrupsiya, mana shu illatni yo'qotmas ekannamiz, maktebdan ham, boshqa tashkilotda ham yaxshi kadr o'z munosib o'mini topmaydi, ta'lim sifati biz o'ylagan cho'qqiga yeta olmaydi.

— Raqobat — rivojlanish va o'sishning muhim ijtimoiy belgisi. Sizningcha, bugun sohangizdagি blogerlar o'zaro raqobatdosh bo'lib qaysidir ma'noda bir-birining o'z ustiga ishlashiga, o'sishiga turkti bo'la olyaptimi?

— Blogerlarning deyarli barchasi bilan do'stman (bloger deganda tik-tokchilarini nazarda tutmayapman, albatta). Bizda o'zaro hamfikrlilik, bilmagan narsalarini bir-biridan so'rab o'rganish jihatni kuchli. Har bir bloger o'ziga xos yo'nalish va uslublarga egaligi tufayli ham birining kamini boshqasi to'ldirishga, sohasidan kelib chiqib maslahatlar berishga intiladi. Bu jihatlar bugun o'zbek blogoferasi rivojlanishida katta rol o'ymoqda.

— Youtube va tiktok blogerlari haqida nima deysiz?

— Youtube biddi hali egallanmagan auditoriya, to'g'risi o'zim ham youtube blogerlari kuzatib bormayman. O'ziga cha bir shovqinli dunyoga o'xshataman uni. Sifat keyingi o'rindaligi tufayli youtubedagi videolarini bir-ikki minutdan ortiq ko'rolmayman. “Shok xabar” deb ochilagan videolar esa ta'bimni xira qiladi. Youtubeda o'z fanimga doir video-darslarimni joylagan edim, 2 yilda 300 ta obunachi ham yig'ilmag'an, darslarim esa eng ko'pi 1500 marta ko'rilgan xolos. Aslida, matematikaning har bir mavzusiga video-darslar olib joylagman. Auditoriya talabi “shok xabar”larga o'ch ekan, nima ham derdi.

— Xalq ichidan otlib, el dardini baralla ko'tarib chiqish oson ish emas. Buning uchun alohida salohiyat, jasorat va matonat talab etiladi. Shuncha mashaqqatga yarasha blogerligingiz

ortidan qanchalik foyda topdingiz?

— Shaxsiy moddiy foydamni aytayotgan bo'lsangiz, biror marta blogerlik orqasidan pul ishlashni xayolinga keltirmaganman, shunchaki bu — hobim. Lekin blogerligim orqasidan bir katta foydamni aytmasam bo'lmaydi, ya'ni postlarim orqasidan qishlog' im ichimlik suvi bilan ta'minlangani eng katta foyda bo'ldi, deb bemalol aytaya olaman.

— Yaqinda Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining yangilangan tarkibi tasdiqlandi. Yangi tarkibga ko'ra, sizni jamoatchilik kengashi raisi o'rinosari etib saylashdi. Bu yanada katta mas'uliyat degani. Endilikda maqsadlarining ko'lami qanday?

— Bu men uchun juda katta mas'uliyat. Norasmiy jamoatchilik vakilligidan rasmiyi jamoatchilik vakilligiga o'tish o'ziga yarasha jiddiy harakat va e'tiborni talab etidi. Ushbu Jamoatchilik kengashi tarkibi oddiy o'qituvchidan tortib senatorgacha, kuchli potensialli soha vakillaridan iborat bo'ldi. Galdagi maqsadim, kengash azerolari bilan maksimal darajada hamkorlik qilib, xalq ta'limi tizimidagi muammolarni hal etishda o'z takliflarimizni vazirlikka taqdim etib borish va xalq manfaatlari yo'lida xizmat qilishdan iborat. Shu bilan birkalikda, soha bo'yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytiramiz. Bu boroda bizga keng jamoatchilikning fikrlari muhim sanaladi. Tizimga oid takliflarni @XTVjamoat botida kutamiz.

— Suhabatimiz so'ngida xalq ta'limi tizimida mehnat qilayotgan hamkasblaringizga tilaklariningiz?


— Pedagog bu — yetaklovchi degani. Har qanday jamiyatda nafaqat bolalarni, balki o'sha jamiyat kishilarini ham yetaklay oladigan kasb. Shuning uchun o'qituvchilar hamma davrda ham ilg'or ziyoililar hisoblab kelingan. Hatto, sobiq sovet davrida hokimlar ham “bu ziyoili, bilimi kuchli” deya o'qituvchilarindan ha-yiqib turgan. Hozir ham shu obro'e-ti-borni saqlab qolish yo'lida ustozlarimiz tinimsiz mehnat qilishi, jamiyat va o'z hayotiga befarqliki yo'qotishi, mustaqil fikrini ochiq aytma olishi, shuningdek, o'zi tarbiyalayotgan o'quvchilarini ham qoliplarsiz, mustaqil fikrl shaxs qilib tarbiyalashni kerak bo'ladi. Mana shu mas'uliyatlari ishda barcha hamkasblarimiga sihat-salomatlilik va omad tilayman!

O'zJOKU talabasi
Nafisa ORTIQOVA
suhbatlashdi.

Navoiy nasrining ozarboyjonlik mudaqqiqi

Doktor Almaz Ulviy xonimning “Alisher Navoiyning asri va nasri (ilmiy-filologik va diniy-tasavvufiy asarları)” mavzusidagi tadqiqotiga taqriz

Qadratlari qalami bilan turkiy tilli xalqlarning nafaqat badiiy adabiyoti, balki qalbi xazinasini va ruhoni yunyosini yakqalam qilgan, betimsol nazm-u nasri bilan boyitgan buyuk mutafakkir Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan qiziqish yillar sayin emas, asrlar o'tgan sayin yanada ortib bormoqda.



Daho so'z san'atkori o'zining "nazarini benaziri"da Ozarboyjon xalqining buyuk shoiri Shayx Nizomiy Ganjaviyini adabiyot ahlining piri komili deb oltin taxt uzra tasvirlashi bilanoq, bu xalqqa, uning o'zga tilga ham singib ketgan go'zal tabiatiga, uning axiyariga bo'lgan muhabbatini qalbiga chucher singdirgan edi. O'zi esa o'z asridan boshlaboq Kichik Osiyoga devonlari vositasida tashrif buyura boshladi va bu jayron bardavom bo'ldi. Bugungi kunda Doktor Almazxonim Ulviyning "Alisher Navoiyning asri va nasri (ilmiy-filologik va diniy-tasavvufiy asarları)" nomli tadqiqoti (Boku: "Ilm va tahsil", 2020) Hazrat Navoiyning Ozarboyjonga yangi tashriflari uchun sabab bo'ldi. Bu tashrifning ancha samarali bo'lishi tadqiqotning nomidanoq ma'lum bo'lmoqda.

Navoiyshunoslik fani mutaxassislar va ilmiy tadqiqotchilar oldiga shu davr va shu jamiyat kishisi ma'nnaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib muayyan vazifalarini qo'yadi. Ushbu vazifalar o'z navbatida bu fan taraqqiyotining o'ziga xos bosqichlari, tadrijiy takomili uchun asos bo'la oladi. Xususan, o'zbek adabiyotshunosligida mutafakkir ijodkor asarlari aniq muammoli masalar nuqtayi nazaridan izchil o'rganish tajribasi bor bo'lsa-da, uning hozirgi davr jahon fani uslubiy yo'nalishlari, mezonlari, talablar darajasidagi taraqqiyot bosqichi uchun ozarboyjonlik olma tadqiqoti misolidagi asarlar nihoyatda zarur. Alisher Navoiy ijodiy merosini o'rganishiga bo'lgan munosabat keyingi chorak as davomida yangi xolisona ilmiy tamoyillar negizida, maskuraviy qoliplardan xoli tarza, yangi ilmiy yondashuvlar bilan davom etmoqda. Shu nuqtayi nazaridan ulug' shoir nasriy merosi mavzulari va

masalalari ko'lami, uning zamonasi va zamondoshlari hayoti bilan bog'liq bittiklari tahlil etilgan mazkur tadqiqot fanimizning qiziqarli sahifalarini tashkil etishi tabiiy. Qiziqarli jihat shundaki, Navoiy nasrining mavzu-mundarijasi, shu mavzu va mazmun yo'nalishi hamda uslubida turkiy tilli adabiyotda yuzaga kelgan yangi janrlar va adabiy tamoyillar badiiy nasrining tadrijiy rivoji uchun xizmat qildi. Bu adabiy hodisangan qay taripa yuzaga kelganligi, qay tarza kechgani, qanday namoyon bo'lganligi, xususiyatlari va bugungi kun uchun qanchalik muhim yoki ahamiyatsiz ekanligi masalalari Almazxonim Ulviyning fundamental tadqiqotida atroficha yoritib berilgan.

Olima izlanishlarini Navoiy asri da ham, hozirgi kunda ham insoniyat jamiyat uchun doimiy dolzarb muammlordan biri bo'lmish barkamol inson timsolining badiiy talqini sohasiga yo'naltiradi va bu masalani mutafakkir adabning nasriy asarları izchil tahlili orqali keng ko'lama amalga oshiradi. Binobarin, tadqiqot mavzusi ham, muallif keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda bir qator dunyo olimlari va izlanuvchilarini qiziqitirayotgan muummlar umumlashtirilib shakllantirilgan.

Tadqiqotda Navoiy nasri uslubi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari masalalari bo'yicha barcha o'zbek va ozarboyjon olimlari tomonidan o'rganilgan va o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar imkon doirasida qamrab olingan, ularga doir kuzatuvalar ilmiy asoslangan, konseptual xulosa yaratilib, shunga ko'ra taklif va tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Olima tadqiq etilishi ko'zda utilgan masalalarga jiddiy ilmiy mu-

nosabat bildiradi. U asarining avvalgi sahifalaridayoq tadqiqoti oldiga qo'yilgan masalalarning zaruratini belgilovchi omillarni qayd etadi. Ilmiy masalalar tahliliga kirishar ekan, Alisher Navoiy hazratlarining ilmiy, tarixiy, adabiy, manqibiy va diniy-tasavvufiy asarları zaminida turgan asosiy muammo – inson ma'rifiy kamoloti tasviri masalasiga e'tibor qaratadi.

Olima mutafakkirming "Majolis un-nafois" va "Nasoyim ul-muhabbat" tazkiralarida, "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" kabi manqibiy asarlarida Navoiy asri ma'rifiy ilmi va madaniyati kamolotini o'z shaxsiyatida namoyon etgan ulug' shoirlar, she'rshunoslar, "ahli ta'b", avliyouolloh, piro ustozlari, do'st-u yorlari badiiy timsoli talqinini kuzatadi va ilmiy tahlil etadi.

Muallif mutafakkir adibning turli mavzu va janrlardagi nasriy asarları badiiy o'ziga xosliklari va estetik qiyofasi ranginligini prototiplarning muallifga bo'lgan munosabatida deb bildi. Chunonchi, Hazrat Jomiy muallifga pir va ustoz maqomida, Sultan Husayn Boyqaro samimi do'st, hammaslak, ijodiy hamkor sifatida, Shayxim Suhayli ulug' shoirning "forsiydisoru turkiyshior yoru azizi" bo'lib, Xoja Ahrori Vali va Xoja Fazlulloh Abullaysiy Samarcandi "farzandim" deya e'zozlab, Sayid Hasan Ardasher shoirning otaxonasi wa muqavviyi rutbasida, Pahlavon Muhammad esa do'st, musohib, muhib, taqdiri o'xshash bir inson mavqevida edilar.

Asarda lingvopoetic tahlil ham mavjud bo'lib, ramziy-istiyoraviv iboralarining ma'no qatlamlari, mohiyati yorqin ochilgan.

O'z ijodida turkiy xalqlar adabiyoti yutuqlarini mujassamlashtirgan, asrining adabiy va madaniy hayoti rivojiga hissa qo'shgan mutafakkir adib Alisher Navoiy nasriy merosidagi har bir badiiy obrazning ijtimoiy-axloqiy mohiyati tadqiqotda teran tahlillar orqali yoritilgan.

Olimaning Navoiy nasriga xos bo'lgan badiiy xususiyatlari tadqiq etish, ularning ma'no, kompozitsiya, obraz va tasvirdagi transformatsiya shalashuv prinsiplarining sabablarini oshib berish, bu tur va undagi janrlarning badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikda tutgan o'rni va ahamiyatini belgilash kabi masalalarga e'tibor qaratishi ham asarning muvaffaqiyatlaridan sanaladi.

Asarning o'quvchida katta qiziqish uyg'otadigan qismi Navoiyning diniy va tasavvufiy ijodiy merosining ma'rifiy nuqtayi nazaridan tahlillaridir.

Tadqiqotning navoiyshunoslik fani rivojida tutadigan asosiy xizmati shunda ko'rindiki, unda Alisher Navoiy davri va zamondoshlari fonida adibning nasriy ilmiy va ma'rifiy asarları

tahlili asosida uzoq turkiy tilli adabiyot tarixida mavjud bo'lgan adabiy tur takomilga yetishi, Hazrat Navoiyning bu sohada ham reformatorligi, turkona, xalqona uslubuning sharq klassik uslublari doirasidagi taraqqiyotini ko'rsatuvchi adabiyotshunos olimligi va o'zbek mumtoz nasrida yangi janrlar ijodkor sifatida namoyon bo'lishi diqqat markaziga chiqariladi. Bu mavzudagi tahlillarida olima akademik Azizzon Qayumov va Jannatxonim Nagiyeva tadqiqotlariga tayanib ish ko'radi.

Asar tarkibi mukammal ishlangan, shoir shaxsi, hasb-u holi, davri, ijodiy merosi, uning ozarboyjon olimlari tomonidan o'rganilishi, har bir fasldan keyin ma'rifiy va didaktik baytlar, she'riy parchalarning keltirilishi, bibliografiya, turli mavzulardagi ko'rsatkichlar zamonaviy ilmiy tadqiqotchilik talablarini to'la aks ettiradi. Bu asar Hazrat Alisher Navoiy biografiyası, davri va nasriy ijodiy merosi bilan yaqindan tanish bo'limgan o'quvchida ham biror savol qoldirmaydi, deb o'yalmiz.

Tadqiqot yuzasidan ayrim mulohazalarimiz ham bor. Shoir biografiyasiga doir sahifalarda muallif Som Mirzoning "Navoiyning otasi Abusaid mirzo saroyida vazir lavozimida bo'lgan", degan noto'g'ri fikrlariga, Navoiyning otasi Husayn Boyqaroning otasi bilan emukdosh bo'lgan kabi noaniq gaplarga izoh bermaydi. Hazrat Navoiyning bobolari temuriy shahzoda Umarshayx mirzo bilan emikdosh bo'lgan. Shuningdek, Navoiy hazratlarining Samarcand safari bilan bog'liq ba'zi tarixiy ma'lumotlarda ham noaniqliklar mavjud.

Xullas, yuragiga Navoiy hazratlarining mehri tushgan olima Almazxonim Ulviyning ushbu katta tadqiqoti mukammal ilmiy-akademik uslubda, ravon va maroqli ifoda tarzida yozilgan. Asar katta hajmdagi ilmiy materialni qamrab olganiqli, maxsus o'rganilmagan adabiy manbalar tahliliga bag'ishlanganligi va nazariy xulosalarga boyligi bilan navoiyshunoslik fanining keyingi rivoji uchun xizmat qiladi, degan fikrdaman. Shu yil fevral oyida Boku shahrida kitobning Ozarboyjon Fanlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Qo'lyozmalar instituti, ikki davlat elchixonaları xodimlari, turkiy tilli davlatlarning nufuzli olimlari ishtirokida taqdimoto lib o'tdi. Taqdimotda ishtirok etgan yirik navoiyshunos olimlar kitobni eng yuksak mukofotlarga munosib asar, deya baholadilar. Darhaqiqat, bu tadqiqot nafaqat ozarboyjonlik mutaxassislar va muxlislar, balki barba turkiy tilli xalqlar e'tiboriga taqdim etilishi lozim bo'lgan ma'naviy boylik bo'lib qoladi.

Dilorom SALOHIY,
filologiya fanlari doktori,
professor,

O'zbekiston Respublikasining xizmat
ko'rsatgan yoshlar murabbiysi

"Biznikilar juft oti-la, arobasi-la, to'yi ila ...faxr etar"

Mustamlaka davrida millat sha'ni, uning ertangi kuni, xalqning yutug'i va qusurlari, yosh avlodning savyisi haqida gapiradiganlar ko'p bo'lmasa-da bor edi. Buni XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati misolida ham ko'rish mumkin. Jadidlar mavjud tuzumming shafqat bilmas o'qlaridan qo'rqlmay haqiqatni baralla kuylashga, shu yurtning uyg'oq farzandi sifatida uning kamchiliklarini birma-bir sanab o'tishga imkon qadar kuch topa bildi. Teatrlar tashkil qildi, maktablar ochib, kambag'al xalq bolalariga bepul ta'lim berdi, gazeta va jurnallarga asos soldi. Ularda o'z maqolalari orqali xalq hayotidagi kamchiliklarni yoritib borishga harakat qildi.

Jadidchilik harakatining Turkiston o'lkasidagi asoschisi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning maqolalari turli gazeta va jurnallarda muntazam chop etilgan. Behbudiy Turkiston matbuoti tarixida yetakchi maqolanavis sifatida alohida o'r'in olgan. Bunga sabab uning 300 dan ortiq turli mavzudagi maqolalar muallifi ekanligidir. Behbudiy maqolalarini shartli ravishda bir necha mavzularga bo'lish mumkin:

1. Fanga oid.
2. Til masalasiga doir.
3. Teatrga oid.
4. Ta'limga oid.
5. Siyosiy-diniy mavzudagi.
6. Ijtimoiy mavzudagi.

Fan va tilga oid maqolalar Behbudiy publisistikasining yirik qismini tashkil qildi. Adabiy maqolalariga "Munozara" haqida", tilshunoslik haqida "Kitob ul-atfot", geografiyaga oid "Kitobi mun-taxabi jug'rofayiy umumiy", tarixa doir "Sherdor madrasasi", "Tarixi Turkiston kerak", tanqidchilikka doir bo'lgan "Tanjid — saralamoqdur" shular jumlasidan. Maqolalarning har birida ushbu fanlarning Turkiston o'lkasidagi maktablarda o'qtinlishi muhim ahamiyatga egaligi ta'kidlangan. Masalan, "Munozara" haqida" maqolasida ushbu asar usuli jadid maktablari va zamonaviy fanlarning foydali tomonlari va buxoroliklar uchun bularni biliш lozimligi haqida bir farangiy afandi va o'qituvchi o'rtasidagi forscha munozara to'g'risida ekanligi hamda bu asarning turkiy tilga yana bir jadid muallimi Hoji Muin tomonidan tarjima qilingani haqida so'z boradi. Publisist maqolada shunchaki asarni sharhlamaydi, shaxsiy qarashlari, tanqidlarini aytil o'tadi: "Va ammo bizni fikrimizcha, Buxoro uchun eng muhim bir bahnsi farangiy afandi faromush etibdurlar. Va ul eng muhim bahs buxorilarni ruscha o'qumoq va rus madaniyatindan naftabar bor bo'imoqg'a targ'ib etmoqdin iborat edi". Maqola muallifi bunga sabab deya Buxoro xalqining asosiy ishi savdo ekani va savdolari Rusiya bilan bog'liqligi, tijoratlarining rivoji uchun, albatta, ruscha bilishlari shart ekanini aytil o'tadi.

Jadidlar sardori til bilishning afzalliklari xususida maqolalarida ko'p bor ta'kidlagan. "Ikki emas to'ri til lozim" maqolasi bu borada juda mashhur. "Biz turkistoniyalarga, — deyiladi maqolada, — turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmog lozimdu. Turkiy, ya'nii o'zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbagiy so'yishlar. Forsiy bo'lsa, madrasa va udabo tilidir... Arabiy til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik

va dunyo uchun lozimdu". Chet tillarni o'rganish esa aslo ona tilini yo'qotish hisobiga bo'imasligi kerakligini yozuvchi esidan chiqarmaydi. "Sadoyi Turkiston"-da chop etilgan "Til masalasi" maqolasi da tilimizda forsiy va arabiy so'zlarning ta'siri kuchi ekanligini anglab yetgan imkon qadar ularni turkiylashtirish lozimligini aytadi. Jamlash ohangida aytiladigan arabcha so'zlarni ham turkcha jamlash mumkin. Masalan: "funum, ulamo, quzzot demoq o'miga fanlar, olimlar, qozilar" deyish mumkin. "Turkistonning o'zig'a teyishli shevashi turk tilining chig'atoy lajhasi bo'lub, "Navoiy" kitobi bu lajhaning go'yo muhim kitobidur".

Behbudiyning eng dolzarb maqolalari — "Sart so'zi majhuldil" hamda "Sart so'zi ma'lum bo'lindi". Mazkur ikki maqolani Behbudiy publisistikasining gultoji deyish mumkin. Boisi, sovetlar davrida Turkiston o'lkasida yashovchilarga nisbatan aynan "sart" so'zi ishlatalgan. Buning vazini esa hech bi turkiy yurak yutib ruslardan so'ray olmagan. Hatto ruscha asarlar tarjimoni Bahrombek Qorovulbegi janoblar ham "Biz Turkiston va Buxoro xalqining turkligi ma'lum bo'lib turub na uchun sart ataydurlar?" — deb taajjubga tushishi shu yurtning o'g'lonlari xalq sha'ni xususida birgina so'zga ham bee'tibor emasliklari, ammo zamona zayli tufayli ularni sart ataganlarga biron chora ko'rolmaganimi isbotlaydi. Yagona chora qarshi chiqish, rad etish! Behbudiy ham aynan shuni uqtiradi. Ruslarga yaxshi ko'rinish uchun bu so'zga ham yaxshi ko'z bilan qaraydiganlarni keskin tanqid qildi. Shu birgina so'z xususida qayta-qayta maqola yozishdan erinmaydi. Oxiri "sart" so'zi qaysi ma'noda bo'lishidan qat'i nazar, olimlar, arbolar tomonidan hal qilinmaguncha qabol qilmaslikka haqqimiz borligini ta'kidlaydi. Turklarni o'z nomlari bilan atashlarini qat'iy talab qildi.

"Teyot — iibratnamodur!" — deydi maqolanavis "Teyot nadur?" maqo-

"...boshqa millatlarni boylari faqir va yetimlar uchun mabkab va dorilfununlar soladurlar, faqir va yetimlar o'qumog'i uchun vaqf "istipendiya"lar ta'yin qilur. Boshqa millat milo'nerlari maktabi ila istipendiyasi-la, idora qilaturgon gazet va majallasi-la, bino qilgan dorulojizin (ayollar universiteti), barpo qilgan jam'iyati xayriyasi-la faxr qiladur. Biznikilar juft oti-la, arobasi-la, to'yi ila va ...la faxr etar. Hatto, o'z o'g'llarini o'qutmaydurgon boylar bordur".



ki, injinerga muhtoj bo'larmiz. Ammo biz hanuz "muhandis" ismini bilmaymiz. Kontur va rasmiy daftar tutib, kassa qurib tijorat etmoq lozim. Ilm tijorat bila turgan buxgalterlik hisobi yuritadurgon boylarimza kerak, ul ham o'zimizdan bir nafar topilmaydur. Hammollikdan bu ishlar yaxshi bo'lsa kerak. Bir necha boyvachchani bilarmanki, eng qattiq xizmatlarga girifor. Sababi nadur — ilmsizlik. Holbuki alarni to'yiga atosi 5 ming so'm sarf etib edi".

Bu gaplar orqali Behbudiy millat boylarini o'z pullarini millat bolalarining ta'lim olishi uchun sarf etishga chaqiradi: "...boshqa millatlarni boylari faqir va yetimlar uchun mabkab va dorilfununlar soladurlar, faqir va yetimlar o'qumog'i uchun vaqf "istipendiya"lar ta'yin qilur. Boshqa millat milo'nerlari maktabi ila istipendiyasi-la, idora qilaturgon gazet va majallasi-la, bino qilgan dorulojizin (ayollar universiteti), barpo qilgan jam'iyati xayriyasi-la faxr qiladur".

Biznikilar juft oti-la, arobasi-la, to'yi ila va ...la faxr etar. Hatto, o'z o'g'llarini o'qutmaydurgon boylar bordur".

Yozuvchi bunday holatning oxiri yomon natijalarga olib kelishini uqtiradi.


Behbudiy asarlarini orqali kommunistik mafkura va uning Turkistonda yoyilishiga jiddiy qarshi chiqqan. Masalan, ilk maqolalaridan biri bo'lgan, "Xurshid" gazetasining 1906-yil 6-sonida chop etilgan "Ish(amal)larning yaxshisi o'r-tachasidir" ("Xayrul umuri avsatuhu") maqolasida "...bu toifaga qo'shilmoq biz, musulmonlар uchun niyohatda zararliq" degan fikrni aytib o'tgan edi. Shuningdek, uning "G'alla, askarlik, yer va tazminoti harbiya", "Qozoq qarindoshlarimiza ochiq xat", "Turkiston" kabi maqolalari siyosiy tusda bo'lsa, "Muh-taram samarqandiyarg'a xolisona arz", "Favqulodda takfir", "A'molimiz yoyinki murodimiz" (asosan ta'limiy) kabi maqolalari diniy ruhda.

Publisistning ijtimoiy ruhdagi maqolalari ham jamiyatning turli yo'naliishiga oid bo'lgan muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. "Bizni kemirguchi illatlar", "Z'o'raki boy" maqolalarini ushbu mavzuga kiritish mumkin. To'g'ri, bu maqolalarni yuqorida uchun mabkabdan tamoman uzoq deyolmaymiz, ammo, qamrovi jihatidan ijtimoiy ruhdagi maqolalar guruhiga kiritgan ma'qul. Chunki ushbu maqolalarda hozir ham dolzrab sanaladigan to'ylardagi ortiqcha xarajatlar masalasi obdon yoritiladi. "Biz bir tanob yerimizni 200 so'm sotib to'y qilmoqchi bo'lsa, yerni xo'b pulg'a urdum, deb majnunona shodlanurmiz". Bunday holatdan esa Behbudiy faqat g'azablanadi, xalqiga rahmi keladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Mahmudxo'ja Behbudiyning publisistik merosi — ulkan xazina. Biz ushbu maqolamiz orqali shu xazinaning bir burchini ochib ko'rdik, xolos. Biroq bu mavzu doim o'rganilishga, tadqiq etilishga, o'qilishga yana ham muhtoj, har gal yangi tadqiqotlar Behbudiy publisistikasining yangi qirralarini kasfh etadi.

"Ma'rifat" repetitor

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 26-varianti




A) 162 sm² B) 124 sm² C) 148 sm² D) 216 sm²

28. Kvadratning yuzi 64 cm² bo'lsa, uning perimetri toping.

- A) 32 cm B) 26 cm
C) 50 cm D) 64 cm

29. Rasmda 4 ta figura berilgan. Bu shakllarning qaysi birining yuzasi eng katta?



- A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

30. Agar tomoni 2 dm bo'lgan kublarning sakkiztasi eritilib, bitta kub yasaladigan bo'lsa, holil bo'lgan kubning tomoni necha dm bo'ladi?

- A) 6 dm B) 4 dm C) 8 dm D) 12 dm

Keyingi sonda "Geometrik shakllar va ularning o'chovlari" mavzusiga oid murakkabroq testlar beriladi, bunda testlar 6–8-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi 32-maktabning
matematika fani o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI (10-sinf "O'zbekiston tarixi" darslarning 5–9-mavzulari asosida tuzilgan test topshiriqlari)

31. 1920-yil 3-mayda qaysi vatanparvar qo'rishi rahbarligida Turkiston – turk mustaqil islam jumhuriyatini tashkil topgan edi?

- A) Shermuhammadbek
B) Madaminbek
C) Katta Ergash
D) Kichik Ergash

32. Quyidagliardan qay biri Mulla Abdulqahhor faoliyati bilan bog'liq emas?

A) amirlik poytaxti Buxoro tumanlarida kuch to'plab qizil armiyaga qarshi kurashlar olib borgan

B) uning qo'l ostida Buxoroning g'arbiy qismida 20 nafar qo'rishi birlashgan

C) uning rahbarligida Buxoro, Karmana va Nurota viloyatlarida o'nlab qo'rishi guruhlari faoliyat ko'rsatgan

D) o'z qo'l ostidagi hududlarda yangi Buxoro hukumatini tugatilib, uning o'miga amirlik davridagi boshqaruv usulini joriy qiladi

33. Quyidagi tarixiy yoqealarni ular sodir bo'lgan yillari bilan muvofiqlashtiring.

1) Turkiyadagi istiqlochilik harakatining ikkinchi bosqichi niyoyasiga yetdi; 2) Anvar Posho Qarshi yanidagi Qalliko'l atrofida Mulla Nafis qo'rishi bilan uchrashib, maxsus bayonet bilan chiqadi;

3) Mulla Abdulqahhor qo'rishi Qizilqumda qizil askarlarga qarshi bo'lgan janglarning birida halok bo'idi; 4) Junaidxon Xorazm o'lkasida o'zining faoliyatini yanada kuchaytiradi; 5) Amir Olimxon bir qator janglarda mag'lubiyatga uchrab Afg'oniston davlati

hududiga o'tib ketishga majbur bo'ladi.

- a) 1935-yil; b) 1922-yil ko'klami; c) 1921-yil noyabr; d) 1924-yil oxiri; e) 1921-yil mart.

- A) 1-d, 2-c, 3-a, 4-b, 5-e
B) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b, 5-e
C) 1-a, 2-e, 3-d, 4-b, 5-c
D) 1-b, 2-d, 3-c, 4-a, 5-e

34. 1917-yil 5-aprelda Asfandiyorxon tomonidan imzolangan islohotlar haqidagi manifestda quyidagi qaysi masalalar qayd etilgan edi?

1) Yangi usul maktablari ochish; 2) Temiryo'l qurish; 3) Pochta va telegraf aloqasini yo'lga qo'yish; 4) Davlat xazinasini nazoratga olish; 5) Amaldorlarni saylab qo'yish va ularga maosh tayinlash tartibini joriy etish; 6) Aholi tabaqalarining shariat oldida tengligini belgilash.

- A) 1, 3, 5
B) 1, 2, 3, 4, 5
C) 1, 2, 4, 6
D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

35. "Taxta shartnomasi" kimlar o'rtasida imzolangan?

- A) Said Abdullaxon va Muvaqqat hukumat vakillari
B) Junaidxon va sovet hukumati vakillari
C) Said Abdullaxon va Sayid Olimxon
D) Yosh xivaliklar va sovet hukumati vakillari

36. 1924-yil 18-noyabrdan ...

A) Fayzulla Xo'jayev raisligida O'zbekiston SSR Muvaqqat inqilobiy komiteti (Markaziy Revkom) tashkil topadi

B) Turkiston ASSR, Buxoro SSR va Xorazm SSR MIKLari maxsus qo'shma qaror qabul qilishib, o'z vakolatlarini O'zbekiston SSR Muvaqqat inqilobiy komitetiga topshirdilar

C) Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komitetining II sessiyasi bo'lib o'tadi

D) O'zbekiston SSRning ilk marotaba Konstitutsiya qabul qilinadi

37. Quyidagi qaysi siyosiy tashkilotning faoliyida taraqqiyat parvar jadid vakillari bo'lgan Munavarqori va Abdulla Avloniyalar ham ishtirok etishgan?

- A) O'rtal Osiyo byuros
B) O'rtal Osiyo Iqtisodiy Kengashi
C) Turkomissiya
D) Musulmonlar byuros

38. Quyidagi qo'rishi lar ular harakat qilgan hududlari bilan mos ravishda joylashtiring.

- 1) Mulla Abdulqahhor; 2) Ibrohimbek;
3) Bahrombek; 4) Madaminbek.
a) G'arbiy Buxoro; b) Sharqiy Buxoro;
c) Samarqand; d) Marg'ilon.

- A) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d B) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d
C) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d D) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d

39. Turkiston o'lkasidagi istiqlochilik harakati

ning ikkinchi davri qaysi yillarni qamrab olgan?

- A) 1927–1936-yy B) 1925–1929-yy
C) 1925–1935-yy D) 1924–1945-yy

40. Hamro Polvon, Hayit Amin, O'rmon Polvon, Oston Qorovulbegi kabi shofirkonlik qo'rishi bilan qaysi qo'rishi qo'l ostida harakat qilishgan?

- A) Junaidxon B) Ibrohimbek
C) Anvar Posho D) Mulla Abdulqahhor

41. Sovet hokimiyati O'rta Osiyoda yer-suv islohotini qanday maqsadda amalga oshirgan?

- A) yirik yer egalari bilan aloqani yaxshilash
B) xususiy mulknii tugatish
C) mahalliy aholini to'laqonli kamsitish
D) istiqlochilik harakatlariga shu yo'l bilan barham berish

42. Turor Risqulovning o'lkani mustaqillik tomon olib boruvchi takliflari qaysi sovet rahbarlarining qarshiligi tufayli amalga oshmay qoladi?

- A) I.Stalin va M.Kalinin
B) M.Frunze va V.Lenin
C) P.Kobozev va F.Kolesov
D) I.Tobolin va V.Lenin

43. Tarixda Buxoro shahrining kimlar tomonidan vayron etilishiga buxoroliklar "kichik qiyomat" deb nom berishgan edi?

- A) arablar
B) qipchoqlar
C) mo'g'ullar
D) qizil armiya

44. Quyidagi qo'rishi bilan bog'liq ma'lumotlarni o'zaro moslashtiring.

- 1) Abdulqahhor; 2) Hamroqulbek; 3) Bahrombek.
a) 1921-yildan boshlab "Turkiston milliy birligi" tashkiloti ko'rsatmali asosida faoliyat ko'rsatgan;
b) Samarqand atrofidagi Pastqishloqda tug'ilgan.
c) 1922-yil kuzida sovetlar tomonidan qo'lga olinib, Samarqand shahrida otib tashlangan;

- d) Qizilqumda qizil askarlarga qarshi janglarning birida 1924-yil oxirida halok bo'ldi.

- A) 1-d, 2-b, 3-c
B) 1-c, 2-b, 3-a
C) 1-c, 2-d, 3-b
D) 1-d, 2-b, 3-a

45. Quyidagilar orasidan Kichik Ergash haqida bildirilgan to'g'ri ma'lumotlarni toping.

- 1) 1882–1921-yillarda yashab o'tgan; 2) 1918-yil 18-fevraldan amalda Turkiston muxtoriyating rahbariga aylangan; 3) Qo'qon shahri mirshabli boshlig'i lavozimida ishlagan; 4) 1919-yilning kužida qo'l ostida 8000 nafr askari bo'lgan; 5) 1919-yilning oktabrda uning rahbarligida Farg'onma muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzilgan.

- A) 1, 2, 3 B) 2, 3 C) 3, 4, 5 D) 4, 5

Jalol BOLTAYEV,
Urganch davlat universiteti talabasi, repetitor

26-VARIANT TESTLARINING JAVOBLARI

ONA TILI														
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
A	C	D	A	B	B	D	C	C	A	B	B	D	C	B
MATEMATIKA														
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
C	A	D	A	B	B	B	C	D	B	A	A	D	B	
O'ZBEKISTON TARIXI														
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
A	D	B	D	B	B	D	B	C	D	B	B	D	A	B

Sahar vaqt. Tong yorishib kelmoqda. Taksichi Halim erinib o'rnidan turdi-da, yuz-qo'lini yuvgach, darvozaxonada turgan mashinasini arta boshladi. Allaqaqchon uyg'oni, sigirlarni sog'ib, o'choqda choy qaynatib kelgan Nilufar nonushta tayyorlar ekan, eriga dedi:

— Keling, ertaroq tamaddi qilib olaylik, otam bilan onam ham kutib o'tirishgandir?

— Hozir, kiraver.

Shu payt besh yoshti Umidjon uydani "Aya..." deb chiqdidi, har kungi odati — bo'sag'adagi uch qadamlik zinadan turib, pastga "choptirib" yubordi. Oshxonadan chiqib kelayotgan Nilufar buni ko'rdi-yu, "Ey, pastroqqa tushsang bo'lmaydimi?" dedi. Halim o'g'lining bu odatiga ko'nikib ketgan.

— Odam bo'lmaiding-da, sen! — dedi g'udranib. — Tez bet-ko'lingni yuv, buvang bilan tog'angni ko'rgani boramiz.

— Askarlarning oldigami?

— Ha!

Uyqusirab turgan Umidjon bir sakrab zinadan tushdi-da, apil-tapil yuz-qo'lini yuvdi-yu, uyga qarab chopdi. Izidan Halim kirdi.

Bugun qaynotasi bilan qaynosasini olib, xizmatdagi qaynukasini ko'rib kelishlari kerak edi. Shu bois xotini bilan o'g'lini ham olib ketishni niyat qilgan.

Tezda nonushta qilib, yo'lga chiqishdi. Askar yigitning ota-onasi allaqaqchon tayyor turishgan ekan, o'g'liga deb olgan narsalarini yuxxonaga joylashtirishdi-yu, mashinaga o'tirishdi. Barchani ajib bir haya-jon chulg'ab olgan: ota-onsa tezroq o'g'lini ko'rish ishtiyoyida yonsa, Nilufar yolg'iz ukasining diyordini qo'msaydi. Umidjon esa "Askarlarni ko'raman!" deb entikadi.

Harbiy qismga yetib borganlarida tush vaqtib o'lib qolgan edi. Qattiqko'l komandir askarga atigi yigirma daqiqaga ruxsat berdi. Bu fursatda ota-oni o'g'lining yanada chayir, sergak, ko'rka yigitga aylanganini ko'rib, ko'zlarini to'yamadi, miriqib, uzoq-uzoq suhablashgisi keldi. Nilufar bo'lsa ukasiga "Yaxshimisan, kiyimlarin o'zingga yarashibdi" dan boshqa so'z aytishga ulgurmadi. Ammo Umidjon bir necha marta tog'asining yelkasiga chiqqudek bo'lib, uni aylanib-o'rgilib tomosha qildi. Boshidagi shapkasini kiyib ko'rdi.

— Katta bo'lsang, kim bo'lasan? — so'radi askar yigit undan.

— Askar! — dedi Umidjon to'lqinlanib.

— Yasha! — askar yigit jiyanining burnidan tortib qo'ydi. — Senga gap yo'q!

Onayizorning esa gaplari, savollari ko'p edi, xayrlashish chog'i ham ko'zda quvonch yoshlari bilan o'g'lini bir muddat bag'riga bosib turdi, "Aylanay sendan..." dedi. Bu qisqa uchrashuvdan qoniqmadi. Ikki ko'zi orqasida bo'lib qaytdi.

— Dada, — dedi Umidjon

uyga kelgach otasiga. — Men katta bo'lsam, tog'amga o'xshab askar bo'laman!

— Qo'ysang-chi, — dedi Halim. — askarlarga havas qilma. Shuyam hayotmi? Ko'rding-ku, ota-onasi bilan uchrashishga yigirma daqiqaga ruxsat berishdi. Hali bu xizmatda. U yerda ishlab qolganlarga yilda bir marta uyga kelishga ruxsat bor, qolgan vaqtda umri "Saflan, rostlan!" bilan o'tib ketadi. Bo'lmaydi bu. Sen bitta o'g'il bo'lsang...

Entikib, to'lqinlanib, bola qalbi bilan orzularga to'lib turgan Umidjon havosi chiqib ketgan sharday birdan bo'shashib qoldi. Onasiga qaradi. Nilufar ham:

...Umidjon ikkinchi sinfga borganida kutilmaganda shifokorlarga havas qildi. Ularning oppoq libosda yurishi, hamma bolalarning ularidan qo'rishi, hamma ularni hurmat qilishini ko'rib, ko'nglida shu kasbga mehr uyg'ondi.

— Dada, katta bo'lsam, do'xtir bo'laman! — dedi.

— Ie, qo'ysang-chi, buning uchun qancha o'qish kerak? Bizdayam orzu-havas bor. Seni vaqtida uylan-tirib, ayang ikkalamiz nevara ko'rish niyatimiz bor. Do'xtir bo'laman deysan. Ularmi bilasan-ku, bitta ukol qilayam lo'liga o'xshab pul so'rashadi. Bo'lmaydi bu kasb.

...Umidjon to'rtinchisinf bo'lganida uchuvchi bo'lishni niyat qildi, ammo bu haqda otasiga aytganida "Sen bola tentak-pentak bo'lganing yo'qmi? Elda bor ishni qil! Ota-buvangdan uchuvchi chiqqanmadi?" de-gan gapni eshitgach, battar hafsalasi pir bo'ldi. Beshinchisinf o'tganida esa darsdan keyin maktab stadionida bolalar bilan to'p tepadigan odat chiqardi. Endi u uyga ham vaqtida kelmas, kelganda ham yo biror joyi shilingan, yo kiyimlari rasvo holda bo'lardi. Buni ko'rgan onasi qarg'ashga tushardi.

— He, to'ping boshingdan qolsin, shu futbolni o'ynamasang bo'lmay-

Orzular kushandası

Hikoya

— Axir bitta-yu bitta bolam bo'lsang. Ko'zimning oldida bo'li-shingni xohlayman-da, Umidjon... — dedi.

Umidjonning bolalik osmonida porlab turgan orzu quyoshini birdan qora bulut qopladи. Ota-onasining so'zlaridan anglagani shu bo'ldiki, askar bo'lish qiyin ekan... Yo'l charchog'idanmi, yo xayollarini chilparchin qilib yuborgan so'zlar sababmi, uyqusi keldi. Halim ham "charchadim" deb to'shakka cho'zildi. Nilufar esa ularga o'ychan qarab qoldi.

...Umidjon birinchi sinfga borganida, "Alifbe bayrami" o'tkazilgan kuni uyga juda quvonib, to'lqinlanib, o'z'i qulog'ida keldi. Kechqurun otasining kelishini kutib, uxlamay o'tirdi. Halim endi ovqatlanishga o'tishi bilan dedi:

— Dada, katta bo'lsam, ustozimga o'xshagan o'qituvchi bo'laman!

— Ey, bema'ni gaplarni gapirma, o'zi ish yaxshi bo'lmay, asabim qaqshab turibdi. Yana sen o'qituvchi bo'laman deysan. Shuyam kasbmi? Umring asabiyashib, kamiga kosang oqarmay o'tib ketasan-ku?! Ana, ko'chamizda nechta o'qituvchi bor, hammasi bitta kostyumini o'n yil kiyadi. Bo'ldi, uxla-e!

— Dada, men...

— Bo'ldi, ko'p gapirma!

Umidjon bir otasiga, bir onasiga qaradi-da, indamay joyiga borib yotdi. Avvaliga u tomonga, bu tomonga ag'darildi, so'ngra o'ziga-o'zi nimaldir deya g'udrana-g'udrana uxlab qoldi.

Umidjon otasiga, so'ng yerga qarab o'tirgan onasiga hayron-hayron boqdi, ammo nima deyishini bilmay, yana joyiga o'tib, uxbab qoldi.

...Umidjon uchinchi sinfga borganida ularning sinfiga yangi o'quvchi keldi. Uni har kuni ertalab otasi olib kelar, darsdan keyin esa onasi olib ketardi. Bolakayning otasi militsioner edi. Umidjon o'g'lini yetaklab maktab eshidigacha kelgan militsionerga uzoq qarab qoldi. Forma kiygan ota o'g'lini ichkariga kiritib, iziga qaytib ketganda ham undan ko'zlarini uzolmadi. Qalbida allaqanday bir to'lqin paydo bo'ldi.

U o'sha kuni qanday o'qidi, qanday uya keldi, xayoli o'zida bo'ladi.

— Dada, — dedi kechqurun otasiga, — men katta bo'lsam, kim bo'lishim kerakligini bildim!

— Yo'g'e? — dedi ota kinoya qilib. — Kim bo'lar ekansan?

— Melisa!

— Nima?! Og'zingni yop-e, urib yuboraman hozir! O'ylab gapiryapsanmi? Odamlar "Melisa bilan do'xtir ga ishing tushmasin!" deb yurishadi-yu, sen bo'lsang... Tushummadim sen bolaga. Indamay maktabingga borib kelaver, kim bo'lishingni o'zim aytaman.

— Dada, axir men...

— E, tirrancha! Menga desa, cho'pon bo'lmaysanmi, lekin unaqa ishlarni xayolinggayam keltirma!

— Nimaga, dada?

— Yana savol beradi-ya, bu?! Qulog'ingga tanbur chertdimm!

Yo'q, tamom-vassalom!

Umidjon otasiga qarab, ko'zlarini ola-kula bo'lib, bo'zrayib qoldi. So'ngra xafa bo'lib tashqariga chiqib ketdi...

dimi? Undan ko'ra, vaqtida kelib, molga qara!

Kechqurun ota ham zug'um qilardi.

— Endi o'qishning o'rniga to'p tepadigan odat chiqardingmi? Menga qara, sendan baribir futbolchi chiqmaydi. Undan ko'ra, maktabdan vaqtida kelgin-da, ayangga yordam ber. Ana, tomorqada shuncha ish yotibdi. Bularni kim qiladi, mol-holga kim qaraydi?

Umidjon bora-bora futbol ham o'ynamaydigan bo'ldi. Onaning diydiyolari, otaning so'kishlari sabab, yurakdag'i o't, ko'nglidagi orzular, qiziqishlar birin-ketin so'na boshladi. Endi u har kuni maktabga borgani bilan nomigagina, agar shu maktabga kelmasa, buning uchun ham gap eshitishini bilgani uchungina kelib-ketardi.

Yettinchi sinfdi adabiyot o'qituvchisi "Men orzu qilgan kasb" mavzusida insho yozdirganida Umidjon yarim soat oq qog'ozga tikilib o'tirib-o'tirib, tanaffusga qo'ng'iroq chalinay deganda qog'ozga ikkitagina gap yozdi.

"Mening hech qanday orzum yo'q! Orzu qilganim bilan dadam qo'yamidi..."

Buni o'qigan o'qituvchi sinf rahbari bilan kelishib, Umidjonning ota-onasini maktabga chaqirtirishdi. Bu gapni eshitgan Halim "Mening maktabda qiladigan ishim yo'q. Bema'ni majlislariga vaqtim ham yo'q. O'zing boraver", dedi xotiniga.

Nilufar ertasi kuni o'g'li bilan maktabga borib, o'qituvchilar xonasida o'g'lining yozgan inshosini o'qib ko'rdi-yu, yer yorilmadi, yerga kirib ketmadi.

Xoliyor SAFAROV

(Davomi keyingi sonda.)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY
GVARDIYASI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN
MUSIQA AKADEMİK LITSEYI**

2021-2022-o'quv yili uchun

"Damli va zarbli cholg'ular ijrochiligi" yo'nalishiga
QABUL E'LON QILADI!

Akademik litseyga umumiyl o'rta ta'limg maktablarining 4-sinfini tamomlagan nomzodlarning hujjatlari 1-iyundan 20-iyungacha qabul qilinadi.

Qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim qilishlari lozim: nomzodning ota-onasi (ularning o'mini bosuvchi shaxslar) tomonidan akademik litsey direktori nomiga ariza (namuna beriladi); nomzodning ota-onasi (ularning o'mini bosuvchi shaxslar) tomonidan to'ldirilgan so'rovnomaga (namuna beriladi);

- nomzodning tug'ilganlik haqidagi guvohnoma nusxasi;
- 086-U shakl bo'yicha tibbiy ma'lumotnoma;
- nomzodning tibbiy daftarchasi (063 shakl);
- 6 dona 3x4 sm o'chamli rangli fotosurat;
- nomzodning o'qish joyidan baholar tabelining nusxasi;
- ota-onasining pasport va nikoh guvohnomalari nusxasi hamda ularning ish joyidan (ishsiz holda mahalladan) ma'lumotnoma;

Kirish imtihonlari 20-30-iyun kunlari o'tkaziladi.

Imtihonlar:

- ✓ ona tili (diktant);
- ✓ matematika (nazorat ishi);
- ✓ o'qish;
- ✓ psixologik sinov (test);
- ✓ ijodiy imtihon (musiqa).

Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, "C" mavzesi.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun:

(71) 276-92-36, 276-34-65;

Web site: www.rimal.uz

Elektron pochta manzili: rimal@uzmail.uz
Telegram +99899 864 74 41 (RIMAL Qabul 2021)

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN MUSIQA
AKADEMIK LITSEYIGA O'QISHGA MARHAMAT!**

Xaitova Yulduz Saitovnaning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariysi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy tayyorgartik jarayonida ijodiy-kommutativ qobiliyatlarini rivojlantirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 16-aprel kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.

Tel: 71-246-92-17; faks: 71-246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovichning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariysi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Axborot xavfsizligini ta'minlash asosida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini shakkllantirish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.03.03 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 16-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.

Tel: 71-246-92-17; faks: 71-246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

To'ychiyev Furqat Numonovichning 05.05.02 — Elektrotexnika. Elektr energetik stansiyalar, tizimlar. Elektrotehnika majmualari va qurilmalar (texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Katta nisbatli qutblari o'zgaruvchan chulg'anni ishlab chiqish va tadqiq qilish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.T.03.03 raqamli ilmiy kengashning 16-aprel 2021-yil soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Tel/faks: (71) 227-10-32; e-mail: tadqiqotchi@tdtu.uz

Xushnazarova Ma'mura Nodirovnaning 13.00.08 — Maktabgacha ta'limg va tarbiya-nazariysi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Maktabgacha ta'limg tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Maktabgacha ta'limg tashkilotlari direktori va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 17-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 64-uy.

Tel/faks: (71) 150-01-27; E-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz. e-mail: info@mdomozi.uz

**Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
kafedralari bo'yicha quyidagi
lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:**

I. "Mahobatli rangtasvir" kafedrası:

- kafedra mudiri
- katta o'qituvchi

II. "Dizayn" kafedrası:

- dotsent

III. "Miniatyura va kitob grafikasi" kafedrası:

- dotsent
- katta o'qituvchi

IV. "Ijtimoiy fanlar, pedagogika va kasbiy ta'limg" kafedrası:

- katta o'qituvchi
- o'qituvchi

Tanlovdan ishtiroy etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- institut rektori nomiga ariza;
- xodimlar shaxsiy varaqasi;
- oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom va attestatlarining nusxasi;
- mehnat daftarchasi nusxasi;
- ilmiy va o'quv-metodik ishlari ro'yxati;
- ijodiy ishlari ro'yxati, ijodiy ishlari fotoalbomi;
- kataloglar.

Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida institut Kengashi kotibi tomonidan qabul qilinadi.

**Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani,
Mironshoh ko'chasi, 123-uy.**

Murojaat uchun telefon raqami: (71) 255-18-33, (71) 255-98-39

Hayitov Odiljon G'afurovichning 04.00.07 — Neft va gaz konlari geologiyasi, ularni qidirish va razvedka qilish ixtisosligi bo'yicha «Buxoro-Xiva o'ksinasining janubi-sharqiy qismidagi uglevodorod konlari o'zlashtirish» mavzusidagi (geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvni instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/30.12.2019.GM.41.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 27-aprel kuni soat 14:00 dagi masofaviy (onlayn) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100059, Toshkent shahri, Shota Rustaveli ko'chasi, 114-uy.

Tel/faks: (71) 250-92-15, 250-92-15; e-mail: igirmigm@mail.ru

Miradullayeva Gavxar Bakpulatovnaning 05.02.01 — Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlav berish. Qora rangli va noyob metallar metallurgiyasi, Kamyo, nodir va radioaktiv elementlar ixtisosligi bo'yicha "Geterekompozit polimer quyma materiallari va qoplamalarining reologik parametrlari hamda texnologik xossalalarini tadqiq etish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.5/27.02.2020.L73.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 17-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100167, Toshkent shahri, Temiryo'chilar 1-tor ko'chasi, 1-uy, 334-aud.

Tel/faks: (71) 299-00-01, 293-57-54; e-mail: tashit_rektorat@mail.ru

2008-yilda Toshkent viloyati Bo'stonliq tumandagi 16-umumiy o'rta ta'limg maktabi tomonidan Pernebayeva Alima Abdusalipovna nomiga berilgan O'R—Sh 0913866 raqamli shahodatnomasi yo'qolganligi sababli

BEKOR QILINADI.

Mirzo Ulug'bek nomidagi Toshkent davlat universiteti tomonidan 1998-yili Berdiyov G'olibjon Rahmatullayevich nomiga berilgan 56004 raqamli bilan ro'yxatga olingan № 007028 raqamli diplom va uning ilovasi yo'qolganligi sababli

BEKOR QILINADI.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Iqtisodiyot fakulteti Mintaqaviy iqtisodiyot va menejment kafedrası katta o'qituvchisi Dilbar Nigmatovaga otasi Zafar ota QURBONALIYEVning vafotи munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot nazariysi kafedrası katta o'qituvchisi Olimjon Xamrayevga onasi vafotи munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

Marifat aya XAMRAYEVning

Samarqand shahar-muzeyga aylanishi lozim

Sayyoohlar nima deydi?

Samarqand — "Sharo'gavhar". Bu gavharning tovlanishlari hamisha xorijiy sayyoohlarni o'ziga jalg qilib kelgan. Samarqand turizmini o'rganish maqsadida shaharga tashrif buyuruvchi turistlar o'tasida maxsus so'rovnama o'tkazdik:

- ◆ Samarqanda turistlar asosan qaysi maqsadda kelishadi?

- ◆ Shaharning ularga yoqqan asosiy jihatni.

- ◆ Turistlar uchratgan kamchiliklar.

- ◆ Shaharda turistlarga eng yoqqan maskan (madrasa, masjid, maqbara...) va nima uchun?

- ◆ Samarqand aholisi madaniyati haqida sayyoohlar qanday fikrda?

- ◆ Gidlarning bilim darajasi va til bilish salohiyatiga qanday baho berishadi?

- ◆ Samarqand turizmini yanada rivojlantirish uchun nimalar qilish kerak?

So'rovnama Amir Temur maqbarasi, Bibixonim masjidini va Registon ansamblida o'tkazdi.

Tahsil va natijalar

Natijalar shuni ko'rsatadi, turistlarning 68.6 foizi Samarqandga tarixiy obidalarni o'z ko'zi bilan ko'rib o'rganish uchun, 21.3 foizi ish yuzasidan, 10.1 foizi faqtinina sayohat uchun kelishadi.

Sayyoohlarning 79.2 foizi 40–60 yosh oraliqida, qolgan qismini esa 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil qildi.

73.9 foiz sayyohlarga Samarqandning tarixiy obidalari va iqlimi, 18.4 foiziga taomlari va mehmondo'stligi yoqqan bo'lsa, qolgan 7.7 foiziga atrof-muhit, transportlar tozaligi va turistik xizmatlar ma'qil kelgan.

Shu bilan birga sayohatimiz davomida qator kamchiliklar bilan ham yuzlashdik. Masalan, oshxona taomlarining sifatilik darajasi pastroq va narxlar nihsbatan qimmat hamda markaziy ovqatlanish joylarining ko'rinishi va ofitsialtari talab darajasida emas. Aholi tomonidan tarixiy obidalar atrofi ifloslanrilishi guvoh bo'ldik. Markaziy ko'chalar ta'mirlab, yaqin-atroflarda hojatxonalar kam.

Turistik xizmatlarga to'xtaladigan bo'lsak, hatto Samarqand xalqaro aeroporti yonida joylashgan mehmonxonada ham xonalarda texnik jihatdan nosozliklar mavjud ekani kishi ishtiyoqini so'ndiradi, negaki bu singari mehmonxonalarga turistlar eng

birinchi tashrif buyuradi va ma'lum darajada xulosha qiladi.


So'rovnomada ishtirot etgan turistlarning 47.3 foizi tozalikka rivoja etilmashligi, 32.5 foizi yo'llarning ta'mirlatabligi va qolgan 20.2 foizi esa turistik xizmatlar talab darjasida emasligidan shikoyat qildi.

Samarqandda turistlar Go'ri Amir, ya'ni Amir Temur maqbarasida nihsbatan ko'proq ekanligi kuzatildi. Maqbarada sayyoohlarni gayrumligi 58.6 foiz, Registon ansamblida esa 21.3 foizini tashkil etdi.

Registon maydoni Samarqand aholisi eng ko'p to'planadigan obida ekanligi kuzatildi. Qolgan 20.1 foiz yurtimiz mehmonlarini Bibixonim masjidida uchratish mumkin.

Samarqand aholisining mehmondo'stligi turistlarda ijobjiy taassurot qoldirdi. Turistik xizmat ko'rsatish xodimlari madaniyati yaxshi darajada, ammo oddiy aholida muomala madaniyati pastroq va ovqatlanish joylarida bir-birini tinglamasdan yuqori ovozda gapishlari ham turistlar diqqatidagi chetda qolmadidi. Hatto ba'zi sayyoohlarni bozorlarda xarid jarayonida narxlar turistlar uchun alohida nihsbatan qimmatroq qilib aytishimi payqab qolishgan bildirishdi.

Turistlarning eng yaqin hamrohi bu gidlari hisoblanadi. 85.2 foiz turistlar Samarqanddagi har bir obida gidlari soni yetarli ekanini, oldindagi tashriflariga qaraganda ancha ko'paytirilganligini hamda har bir uchun alohida gidlari mavjudligini, ularning bilim darajasi va til bilish qobiliyati yaxshi darajada ekanligini bildirishdi. 9.6 foiz turistlar gidlarning boshqa tildagi



so'zlarni biroz aksent bilan talaffuz qilişayotganini hamda 5.2 foiz tashrif buyuruvchilar gidlari ish kiyimida emasligini aytilib o'tishdi.

Turistlarning fikricha, Samarqandda turizmni yanada rivojlantirish uchun tomosha qilinadigan obidalar sonini yanada ko'paytirish, butun Samarqandni to'liqligi-



cha tarixiy maskan — muzeys-shahar qilish kerak, hattoki mehmomonalar bezaklarini ham tarixiy bo'lishi, kelgan mehmon o'zini xuddi qasrga tushib qolgandek his qilishi lozim. Bunday javoblar 76.2 foizini tashkil etgan bo'lsa, qolgan 23.8 foiz javoblarda bu yerda har xil ko'ngilochar joylar ko'proq qurilishi lozimligi ta'kidlangan.

Ushbu o'tkazilgan so'rovnama, intervyu va taqdijotlarga asoslanib quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin.

Eng avvalo, har bir Vatanimiz farzandi tariximizni bilishi lozim. Biz avval tarixni o'rganib, keyin kelajakka nazar solishimiz kerak. Chunki chet elda bo'lganiningizda oddiy aholi sizdan qayerdansiz, deb so'rashi mumkin, shu payt Toshkent, Xiva, yoki Samarqand deya javob qaytarasiz, le-



Mavzu bo'yicha video lavha ham tayyorladik hamda youtube sahifalariga joyladik (<https://youtu.be/n8K0STk3Ro8>). So'rovnomada sayyoohlarni hamda shahar aholisi ishtirot etdi.

"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifiga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marfat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatti: Humoyun Quvondiqov.
Navbatti: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftanining chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyiда chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba
uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4632. Tiraj: 10092.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxa.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.

